Tadqiqot uslubi. Laboratoriya stendi shnekli miqdorlagich texnologik jarayonni bajarishi uchun salt ishlaganda qancha energiya talab etilishini aniqlashga mo'ljallangan. Bu tadqiqot ishlarini bajarishdan ko'zlangan maqsad, shnekni aylantirishga sarflanadigan quvvat don ekishga sarflanadiganiga nisbatan sezilarli darajada bo'lmasa, uning yuritmasini ajratishga xojat qolmaydi.

Laboratoriya tajribalarini o'tkazish uchun, taklif etilgan seyalkaning shnegi va miqdorlash apparatini belgilangan tezlikda aylantirishga sarflangan quvvatdan, amaldagi (shnegi olib qo'yilgan) seyalkaga sarflangan quvvat miqdori ayiriladi va ayirma taklif etilayotgan seyalkaga sarflangan ortiqcha quvvat miqdorini ko'rsatadi.

Keltirilgan fikrni quyidagicha ifodalash mumkin,

$$N = N_t - N_a \quad (1)$$

Bunda N_t – taklif etilayotgan seyalka uchun sarflangan quvvat, N ;

N_a – amaldagi seyalka uchun sarflangan quvvat, N .

Laboratoriya sharoitiga moslashtirilgan seyalkaga AIR-80V4 IM1081 rusumli elektrodvigatel o'rnatildi. Seyalkaning bir tomonidagi tayanch g'ildirak olib qo'yildi. Aylanma harakat zanjir orqali elektrodvigateldan tayanch g'ildirak o'qiga o'rnatilgan yulduzchaga uzatildi (1-rasm).



1- laboratoriya stendi; 2- tok kuchi va kuchlanishni ko'rsatadigan datchik; 3-aylanishlar sonini o'zgartirib beradigan latr.

1-rasm. Seyalkaga o'rnatilgan shnek va miqdorlagichni aylantirishga sarflanadigan quvvatni aniqlash jarayoni


Tajriba o'tkazish stendi quyidagi 1- laboratoriya stendi, 2- o'zgarmas tok diodli (most), tok kuchi va kuchlanishni kursatadigan datchik, 3-qurilmaning aylanishlar sonini o'zgartiruvchi moslama (latr) qismlaridan tashkil topgan.

Laboratoriya stendi shnekli miqdorlagichning ishlash mobaynida va salt ishlaganda qancha energiya talab etilishini aniqlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, shnekli miqdorlagichni turli aylanishlar sonida aylantirib, tajriba o'tkazish mumkin. Laboratoriya stendi elektr toki yordamida ishga tushiriladi va statsionar shariotda ishlaydi [3,4].

Laboratoriya sharoitida shnekli miqdorlagich miqdorlagan donni miqdorini aniqlash uchun uning aylanishlar sonini aniqlash lozim va u quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Shnekli miqdorlagich aylanishlar sonini aylanma harakatdagi jismlarning aylanishlar soni yoki chiziqli tezligini o'lchaydigan elektron DT 2236 B rusumli taxometr yordamida aniqlanadi.

2-rasmda aylanma harakatdagi jismlarning aylanishlar soni yoki chiziqli tezligini o'lchaydigan elektron DT 2236 B rusumli taxometrnig elementlari keltirilgan.




A-rangli tasma; V-asbobga signal nurining qaytib kelishi; S- displey oynasi; D-o'lchashni ishga tushirish tugmasi; E-funksiyani almashtirish tugmachasi; F-ma'lumotlarni xotiraga kiritish tugmasi; G-batareya qopqog'i; N-sinalayotgan obyekt bilan bog'lanish sterjeni; I-aylanayotgan jismning chiziqli tezligini aniqlash moslamasi.

2 rasm. Aylanma harakatdagi jismlarning aylanishlar soni yoki chiziqli tezligini o'lchaydigan elektron DT 2236 B rusumli taxometrning elementlari

Mazkur taxometrning ijobiy tomonlaridan biri, taxometrni aylanayotgan jismga bevosita tekizib yoki tekizmasdan aylanishlar sonini aniqlash mumkin. Sinovdagi aylanayotgan jismga bevosita tekizishda I yoki H harflari bilan belgilangan element (uchlik)lardan foydalaniladi. Ulardan H harfidagi element odatda aylanayotgan valning markazidagi chuqurchaga tekiziladi. Shu paytda displey oynasida aylanishlar soni ko'rsatiladi.

I harfi bilan belgilangan element aylanayotgan o'q, val yoki shkivning chetiga tekiziladi. Shunda displeyda chiziqli tezlik miqdori ko'rsatiladi. Tadqiqotlarni olib borishda, aylanayotgan jism vali yoki shkivi chetiga asbobning I yoki H elementlarini bevosita tekizish imkoni bo'lmasa, u holda rangli tasmadan foydalaniladi. Buning uchun rangli tasma (3 rasmga qaralsin) aylanishi o'lchanadigan jismga yilimlanadi. So'ngra jism aylanma harakatga keltirilib, asbobning signal qabul qilish tomoni u tomonga qaratiladi. Shunda displeyda jismning aylanishlar chastotasi soni ko'rinadi.

Biz ham laboratoriya stendida shnekni aylanishlar sonini aniqlash uchun quydagi ketma-ketlikda ish olib boramiz.



1- elektrodvigatel; 2,3-shkivlar; 4-zanjirli uzatma; 5-zanjirni rostlash shesternyasi; 6-taxometr; 7, 8-mos holda shnek va miqdorlash apparati vallariga o'rnatilgan shesternyalar
3-rasm. DT 2236 B rusumli elektron taxometr yordamida aylanishlar sonini aniqlash jarayoni surati

Laboratoriya stendini ishga tushiramiz shnek valiga DT 2236 B rusumli taxometrning signal qabul qilish tomoni u tomonga qaratamiz. Latir yordamida aylanishlar sonini oshiramiz va kerakli aylanishlar sonini qabul qilib olamiz.

Laboratoriya stendi elektr tarmog'iga ulanadi. Qurilmada tajribalar o'tkazish aylanishlar sonini o'zgartiruvchi moslama (latir) ning rozetkasi elektr tarmog'iga ulanadi. Stend shnegining vali DT 2236 B rusumli elektron taxometr yordamida kerakli aborotga sozlanadi.

Tadqiqot natijalari Kerakli aborotga sozlangandan keyin Stend normal xolatda kerakli aborotda aylanaytgan vaqtda seyalkaning shnegi va miqdorlagichini salt aylanishda (bug'doy solinmasdan bo'sh ishlaganda) o'zgarma tok diodli (most) datchikdagi ko'rsatilgan tok kuchi va kuchlanishi jadvalga kiritiladi, shundan so'ng seyalka bunkeriga bug'doy solinib, bunker to'sgichi kerakli normada ochiladi, tushgan bug'doyni shnek ketma-ketlikda miqdorlagichlarga taqsimlashni boshlaydi shu vaqtda datchikda kursatilayotgan tok kuchi va kuchlanishi qiymati o'zgaradi. O'zgargan qiymatlar jadvalga kiritiladi.

1-jadval.

T/r	Tajribalar soni	Aylanishlar soni, n ayl/min	Tok kuchi, I, amper		Kuchlanish, U, volt		Miqdorlagichga sarflangan quvvat kVt	
			Salt yurish	Ishchi yurish	Salt yurish	Ishchi yurish	Salt yurish	Ishchi yurish
1	1	60	13,8	14,2	0,27	0,31	3,726	4,402
	2		13,7	14,3	0,26	0,30	3,562	4,29
	3		13,5	14,4	0,25	0,32	3,375	4,608
O'rtacha			13,6	14,3	0,26	0,31	3,554	4,433

Qurilmaning tarmoqdan oladigan umumiy quvvati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi [5,6],

$$P = I \cdot U \quad (2)$$

bunda P – umumiy quvvat, kVt;

Tajribalar uch karra takrorlikda o'tkazildi.

Xulosa. Tok kuchini kuchlanishga ko'paytmasi quvvatga tengligi qoidasidan foydalanib, qurilmaning salt holatda ishlagandagi quvvat sarfi 3,554 kVt ni, yuklama bilan ishlash jarayonida esa 4,433 kVt ni tashkil etishi hisoblab aniqlandi. Ushbu raqamlarning ayirmasi shnek va novli miqdorlagichlar uchun sarflangan quvvatga teng bo'lib, u 0,879 kVt ni tashkil etdi. Tajriba seyalkaning bir tarafida o'tkazilganligi uchun olingan qiymat ikkiga ko'paytiriladi va 1,758 kVt ni tashkil etdi.

Bu qiymat traktordagi quvvatga nisbatan ancha kichik hisoblanadi. Shu bois tekis maydonlarda ham shnekli qurilmani ajratib, undan foydalanish sezilarli samara keltirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. (FAO. World Food and Agriculture - Statistical Yearbook 2023. Rome. 2023. – Pp. 15-17. <https://doi.org/10.4060/cb1329en>.)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ILOVA 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish. Farmoni.
3. Khudaykulov R.F., Grain seeder designed for dry sloping areas // INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY (ICAST) universal Conference Buyuk Britaniya Tom 1, № 11 (2024): – B. 3-7.
4. Xudayarov B.M., Xudayqulov R.F., Lalmi maydonlarda g'allaning ekish sifatini oshirishning texnik yechimi //Agro ilm. – Toshkent, 2023. №5 –B. 67-69.
5. Рубашкин А.Г., Чернилевский Д.В. Лабораторно- практические работы по технической механике. – М., «Выш. школа», 1975 – 131 с.
6. Xonboboyev A., Xalilov N. Umumiy elektrotexnika va elektronika asoslari. – T.: O'zbekiston, 2000. – 222 b.

YUQORI YARUS KORPUSINING PASTKI YARUS KORPUSIGA NISBATAN KO'NDALANG YUNALISHDA SILJISH MASOFASINI IKKI YARUSLI DISKLI PLUGNING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI BO'YICHA O'TKAZILGAN TAJIRIBA NATIJALARI

A. To'xtaqo'ziyev¹, Sh.U. Ishmuradov², R.B.Abdumajidov², R.K. Hamroyev²

¹Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

²Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tajribaviy tadqiqotlar ikki bosqichda olib borilgan bo'lib, birinchi bosqich bo'yicha tajribalarni o'tkazishda yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 5 cm interval bilan 10-30 sm gacha, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar 10 cm interval bilan 20-60 sm gacha, bundan tashqari bir parametr o'zgartirilganda boshqa parametrlar doimiy bo'lganligi, barcha variantlar uchun haydov chuqurligi bir xil 30 sm etib belgilanganligi, bu tajribalarni o'tkazishda ish organlarining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 40°, tikka nisbatan o'rnatilish burchak 20° hamda plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar mos ravishda 40 va 50 cm etib belgilab olib borilgan dala tajriba natijalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Ikki yarusli diskli plug, qurilma ramasi, osish qurilmasi, asosiy (pastki) diskli korpus, yuqori korpus, tayanch g'ildirak, tayanch disk, tayanch diskni rostlash qurilmasi, ko'ndalang bruslar, qiya bruslar va bo'ylama bruslar, yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar, tuproqning uvalanish darajasi, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi, plugning tortishga solishtirma qarshilik, ish tezliklar.

РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВЛИЯНИЯ ПОПЕРЕЧНОГО СМЕЩЕНИЯ КОРПУСА ВЕРХНЕГО ЯРУСА ОТНОСИТЕЛЬНО КОРПУСА НИЖНЕГО ЯРУСА НА ЭКСПЛУАТАЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДВУХЪЯРУСНОГО ДИСКОВОГО ПЛУГА

А. Тухтакузиев¹, Ш.У. Ишмурадов², Р.Б. Абдумажидов², Р.К. Хамроев²

¹Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства

²Ташкентский государственный технический университет

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментальных исследований, проведённых в два этапа. На первом этапе при выполнении опытов поперечное смещение корпуса верхнего яруса относительно корпуса нижнего яруса изменялось в диапазоне 10–30

см с интервалом 5 см. Продольные расстояния от корпуса верхнего яруса до расположенного перед ним корпуса нижнего яруса, а также от корпуса нижнего яруса до расположенного перед ним корпуса верхнего яруса варьировались в пределах 20–60 см с интервалом 10 см. При изменении одного параметра остальные параметры поддерживались постоянными. Для всех вариантов глубина вспашки устанавливалась одинаковой и составляла 30 см. В ходе проведения полевых экспериментов угол установки рабочих органов относительно направления движения составлял 40° , угол установки относительно вертикали — 20° . Продольные расстояния от корпуса верхнего яруса до расположенного перед ним корпуса нижнего яруса и от корпуса нижнего яруса до расположенного перед ним корпуса верхнего яруса были соответственно приняты равными 40 и 50 см. В статье приведены результаты проведённых полевых испытаний.

Ключевые слова: двухъярусный дисковый плуг, рама орудия, навесное устройство, основной (нижний) дисковый корпус, верхний корпус, опорное колесо, опорный диск, устройство регулирования опорного диска, поперечные брусья, наклонные брусья, продольные брусья, поперечное смещение корпуса верхнего яруса относительно корпуса нижнего яруса, продольные расстояния между корпусами верхнего и нижнего ярусов, степень крошения почвы, полнота и глубина заделки растительных остатков, удельное тяговое сопротивление плуга, рабочие скорости.

RESULTS OF EXPERIMENTAL STUDIES ON THE EFFECT OF TRANSVERSE DISPLACEMENT OF THE UPPER-TIER BODY RELATIVE TO THE LOWER-TIER BODY ON THE PERFORMANCE INDICATORS OF A TWO-TIER DISK PLOW

A. Tukhtakuziev¹, Sh.U. Ishmuradov², R.B. Abdumajidov², R.K. Hamroev²

¹Scientific Research Institute of Agriculture Mechanization

²Tashkent State Technical University

Abstract. This paper presents the results of experimental studies conducted in two stages. At the first stage, during the experiments, the transverse displacement of the upper-tier body relative to the lower-tier body was varied within the range of 10–30 cm with an increment of 5 cm. The longitudinal distances from the upper-tier body to the lower-tier body positioned ahead of it, as well as from the lower-tier body to the upper-tier body positioned ahead of it, were varied within 20–60 cm with an increment of 10 cm. When one parameter was changed, the remaining parameters were kept constant. For all experimental variants, the plowing depth was maintained at 30 cm. During the field experiments, the installation angle of the working bodies relative to the direction of motion was 40° , while the inclination angle relative to the vertical was 20° . The longitudinal distances from the upper-tier body to the lower-tier body positioned ahead of it and from the lower-tier body to the upper-tier body positioned ahead of it were set at 40 cm and 50 cm, respectively. The paper presents the results of the conducted field experiments.

Keywords: two-tier disk plow, implement frame, hitching device, main (lower) disk body, upper body, support wheel, support disk, support disk adjustment mechanism, transverse beams, inclined beams, longitudinal beams, transverse displacement of the upper-tier body relative to the lower-tier body, longitudinal distances between upper and lower tier bodies, soil crumbling degree,

completeness and depth of crop residue incorporation, specific draft resistance of the plow, operating speeds.

Kirish. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida energiya-resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalari keng joriy etilishi munosabati bilan yerlarga asosiy ishlov berish(shudgorlash)da diskli, ya'ni ish organi sferik disk ko'rinishida bo'lgan pluglarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular ag'dargichli pluglarga nisbatan tortishga kam qarshilik ko'rsatadi, ish unumi yuqori, o'simlik qoldiqlari va begona o'tlarga tiqilmasdan ishlaydi[1].

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalarini tekshirib ko'rish hamda ikki yarusli diskli plug parametrlari kam energiya sarflagan holda tuproqqa sifatli hamda agrotexnika talablari bo'yicha ishlov berilishini ta'minlovchi qiymatlarini aniqlash maqsadida tajribaviy tadqiqotlar dasturiga quyidagilar kiritildi:

- tajribaviy, tadqiqotlarni o'tkazish uchun dala qurilmasini ishlab chiqish va yasash;

- ikki yarusli diskli plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalari, plugning tayanch tekisligidan uning osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofasi va agregat harakat tezligini tuproqning uvalanish sifati, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi va plugning tortishga solishtirma qarshiligiga ta'sirini o'rganish;

- tajribalarni matematik rejalashtirish usulini qo'llab, ikki yarusli diskli plug parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash.


Materiallar va uslublar. Sinovlar QXMITI tajriba uchastkasining bug'doydan bo'shagan va nam suvi berilgan dalalarida o'tkazildi.

Yo'qoridagi 1-jadvalda tajribalarni o'tkazishdan oldin dala tuprog'ining namligi, qattiqligi, undagi ang'izning miqdori va balandligi bo'yicha tavsifi keltirilgan.

Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazishda ikki yarusli diskli plug New holland TD5.110 rusumli haydov traktoriga qo'shib ishlatildi.

Tajribalarni o'tkazishda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi O'zDSt 3193:2017 «Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli» bo'yicha tenzometrik barmoqlar qo'llanilib, agrotexnik ko'rsatkichlari esa O'zDSt 3355:2018 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproqqa chuqur ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari" bo'yicha aniqlandi [2;3.].

Dala qurilmasi 2,0-3,0 klass traktorlarga osma variantda institut konstruktorlik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan chizmalar bo'yicha tayyorlandi. Nazariy tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, ish organi sifatida diametri 560 mm va egrilik radiusi 660 mm bo'lgan sferik sirtli disklari qabul qilindi. 1-rasmda ikki yarusli diskli plug dala qurilmasining umumiy konstruktiv sxemasi keltirilgan. . rama 1, bo'ylama bruslar 2, tayanch g'ildirak 3, qiya bruslar 4, ko'ndalang bruslar 5, tayanch disk 6, tayanch diskni rostlash mexanizmi 7, pastki yarusli korpuslar 8, yuqorigi yarusli korpuslar 9, osish qurilmasi 10 dan tashkil topgan.



1-rama; 2-bo'ylama bruslar; 3-tayanch g'ildirak; 4-qiya bruslar; 5-ko'ndalang bruslar; 6-tayanch disk; 7-tayanch diskni rostlash mexanizmi; 8-pastki yarusli korpuslar; 9-yuqorigi yarusli korpuslar; 10-osish qurilmasi;

1-rasm. Ikki yarusli diskli plug dala qurilmasining konstruktiv sxemasi

Osish qurilmasi va tayanch g'ildiragining ramaga o'rnatilish joyini keng oraliqda o'zgartirish imkoniyatiga ega etib ishlangan. Yuqori yarus korpuslarining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi ko'ndalang bruslar 5 da qiya bruslar 4 ni bir biriga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda surish yo'li bilan, yuqorigi yarus korpusdan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusdan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalarni qiya bruslar 4 da pastki va yuqorigi korpuslarni bir biriga nisbatan oldinga yoki orqaga surush yo'li bilan o'zgartiriladi.

Osish qurilmasining holati osish kronshteynlarni ko'ndalang brus 5 da o'ng va chap tomonga va tayanch g'ildiragining holati uni bo'ylama brus 2 da oldinga yoki orqaga surish yo'li bilan o'zgartiriladi.

Tajribaviy tadqiqotlar ikki bosqichda olib borildi. Birinchi ikki yarusli diskli plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalari ikki yarusli diskli plugning tayanch tekisligidan uning osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofasi va agregat harakat tezligini tuprog'ning uvalanish sifati, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi hamda plugning tortishga solishtirma qarshiligiga ta'siri o'rganildi. Ikkinchi bosqichda esa tajribalarni matematik rejalashtirish usuli qo'llanilib, ko'p omilli tajribalar o'tkazildi.

Har ikkala bosqichda ham tajribalar QXMITI tajriba uchastkasining bug'doydan bo'shagan va nam suvi berilgan dalalarida o'tkazildi. Quyidagi 1-jadvalda tajribalarni o'tkazishdan oldin dala tuprog'ining namligi, qattiqligi, undagi ang'izning miqdori va balandligi bo'yicha tavsifi keltirilgan.

1-jadval

Tajribalar o'tkazilgan dalaning tavsifi

t/r	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarning qiymati
1.	Tuproqning qatlamlar bo'yicha (cm) namligi, %: 0-10 10-20 20-30	11,9 15,0 17,1
2.	Tuproqning qatlamlar bo'yicha (cm) qattiqligi, MPa: 0-10 10-20 20-30	0,63 1,82 2,88
3.	Sug'orish egatlarining chuqurligi, cm: M_o $\pm\sigma$	14,6 2,3
4.	1 m ² yuzadagi o'simlik qoldiqlari, kg	0,489
5.	Ang'izning balandligi, cm: M_o $\pm\sigma$	24,3 4,2

Natijalar va ularning tahlili. Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazishda qurilma New holland TD5.110 rusumli haydov traktoriga qo'shib ishlatildi.

Tuproqning uvalanish sifatini aniqlash uchun olti takrorlikda 0,25 m² maydonchadan namunalar olindi. Buning uchun tomonlari 0,5x0,5 m bo'lgan tagi ochiq qutidan foydalanildi. Olingan natijalar 50 va 25 mm li teshiklari bo'lgan elaklardan o'tkazildi. Har bir elakda qolgan va oxirgi elakdan o'tgan fraksiyalar massasi RP-100Sh13 tarozisida tortilib, 50 mm dan katta, 50-25 va 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori foizda aniqlandi va bunda o'lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar tuproqning uvalanish darajasi sifatida qabul qilindi

Tuproqni elashda katta teshiklari bo'lgan elakdan kichik o'lchamli teshiklari bo'lgan elaklarga o'tish tartibi qo'llanildi.

Ikki yarusli diskli plug bilan shudgorlangan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishini aniqlash uchun qurilma o'tgandan keyin uning butun qamrash kengligi bo'yicha harakat yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalishda dala yuzasiga parallel o'rnatilgan reyka bilan uning ko'ndalang profili aniqlandi. Bunda o'lchovlar 5 cm interval bilan $\pm 0,5$ cm aniqlikda olib borildi.

Tajribalarni o'tkazishdan oldin va o'tkazib bo'lingandan keyin tenzobarmoqlar tarirovka qilindi. Bunda pastki o'ng va chap tenzobarmoqlarga 0-20 kN oraliqda 4,0 kN interval bilan, yuqorigi tenzabarmoqqa 0-10 kN oraliqda 2,0 kN interval bilan yuklanishlar berildi. Tarirovkadagi xatolik 1,6 % ni tashkil etdi.

Tarirovkada olingan ma'lumotlar bo'yicha tarirovka koeffitsenti aniqlandi. So'ngra tajribalarda olingan ma'lumotlar tarirovka koeffitsentiga ko'paytirildi va tortishga solishtirma qarshilik kuchining haqiqiy qiymati aniqlandi.

Tenzometriya o'tkazishda tenzobarmoqdan chiqayotgan signallarni qayd etish uchun IP-264BS o'lchash apparaturasidan foydalanildi.

Birinchi bosqich bo'yicha tajribalarni o'tkazishda yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 5 cm interval bilan 10-30 sm gacha, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan va

pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar 10 cm interval bilan 20-60 sm gacha, Har bir variant agregatning 6 va 9 km/h tezliklarida o'tkazildi. Bundan tashqari bir parametr o'zgartirilganda boshqa parametrlar doimiy bo'ldi, ya'ni o'zgarishdan qoldi. Barcha variantlar uchun haydov chuqurligi bir xil va 30 sm etib belgilandi.

Bu tajribalarni o'tkazishda ish organlarining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 40°, tikka nisbatan o'rnatilish burchak 20° hamda plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar mos ravishda 40 va 50 cm.


Ikki yarusli plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi o'zgarishini uning agroteknik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda olingan natijalar 2-jadval hamda 2-rasmda keltirilgan.

2-jadval.

Yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, cm	Tuproqning uvalanish darajasi, %	O'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi, cm	O'simlik qoldiqlarining ko'milish chuqurligi, cm	Plugning tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
V=6 km/soat				
10	90,9	92,5	21,4	8,14
15	91,6	94,2	23,2	8,25
20	91,8	92,2	21,6	8,27
25	91,5	88,5	18,6	8,35
30	90,6	85,2	16,0	8,34
V=9 km/soat				
10	91,3	86,6	17,1	8,22
15	92,2	91,2	20,1	8,29
20	92,6	94,6	23,5	8,38
25	92,2	94,1	22,8	8,42
30	91,7	93,5	21,6	8,41

Ulardan ko'rinib turibdiki, yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasini 10 cm dan 30 cm gacha o'zgarishi tuproqning uvalanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Ya'ni o'zgarish oralig'i kichik qiymatga ega bo'lgan. Buning sababi shundaki, yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasini ortishi ular ishlov berayotgan tuproq palaxsalarining kengligiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 10 cm dan 30 cm gacha ortganda o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi har ikkala harakat tezligida ham oldin ortgan keyin esa kamaygan. Agregatning 6 km/h harakat tezligida yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 10 cm dan 15 cm gacha oraliqda o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi ortgan bo'lsa, 15 cm dan 30 cm gacha oraliqda kamaygan. Agregat harakat tezligi 9 km/h ga ortganida esa bu ko'rsatkich 10 cm dan 20 cm gacha oraliqda ortgan, 20 cm dan 30 cm gacha oraliqda kamaygan. Buni tezlik ortishi bilan ish organlarning tuproqni uloqtirish masofasi o'zgarishi bilan tushuntirish mumkin.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 9 km/h bo'lganda

2-rasm. Yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi(e)ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<50}$), o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi (O_{ψ}), o'simlik qoldiqlarining ko'milish chuqurligi (O'_{ch}) va tortishga solishtirma qarshilik (R_{σ})ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi ortishi bilan plugning tortishga solishtirma, ya'ni 1 m qamrov kengligiga to'g'ri keladigan qarshiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Masalan, agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda bu ko'rsatkich 0,20 kN ga o'zgargan bo'lsa, 9 km/h harakat tezligida 0,21 kN ga o'zgargan. Buni ham yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi ortishi bilan ishlov berilayotgan tuproq palaxsalarining kengligini ortmasligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Agregat harakat tezligini 6 km/h dan 9 km/h gacha oshishi tuproqni uvalanish sifatini yaxshilanishiga va tortishga solishtirma qarshilikni ortishiga olib kelgan. Bu asosan, tuproq tomonidan ish organlariga ta'sir etuvchi inersiya va ish organlari tomonidan esa tuproqqa berilayotgan zarba kuchlarini ortishi hisobiga yuz bergan. O'tkazilgan tadqiqot natijalar bo'yicha ikki yarusli diskli plugning yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 15-20 cm oralig'ida bo'lishi lozim ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtaqo'ziev A., Ishmuradov Sh.U., Abzalova M. Diskli plug // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2010. – №12. – B.29.
2. O'zDSt 3193:2017 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli". – Toshkent, 2017. – 21 b.
3. O'z DST 3412:2019 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari". – Toshkent, 2019. – 52 b.

SOMON YUKLAGICH BARABAN PARRAKLAR SONING ISH SIFATIGA TA'SIRI

N.A. Ashurov

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘alla kombaynilar uchun, somon yuklagich moslama baraban parraklar sonining ish sifatiga ta’siri tajribaviy tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot davomida parraklar sonining o‘zgarishi somonni irg‘itish masofasi va nobudgarchilik darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Maqbul parametrlar aniqlanib, eng kerakli va samarali parraklar soni 4 ta ekanligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi texnikalarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘zlar: somon yuklagich, baraban parraklari, irg‘itish masofasi, nobudgarchilik, qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi.

ВЛИЯНИЕ КОЛИЧЕСТВА ЛОПАСТЕЙ БАРАБАНА ЗАГРУЗЧИКА СОЛОМЫ НА КАЧЕСТВО РАБОТЫ

Н.А. Ашуров

«Ташкентский институт инженеров ирригации и сельскохозяйственной механизации»
Национальный исследовательский университет

Аннотация. В данной статье экспериментально исследовано влияние количества лопастей барабана приспособления для загрузки соломы на качество работы зерноуборочного комбайна. В ходе исследования был проведен анализ того, как изменение количества лопастей влияет на дальность выброса соломы и уровень потерь. Определены оптимальные параметры, и показано, что наиболее эффективное количество лопастей составляет 4. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования сельскохозяйственной техники.

Ключевые слова: загрузчик соломы, лопасти барабана, дальность выброса, потери, механизация сельского хозяйства.

THE EFFECT OF THE NUMBER OF DRUM BLADES OF THE STRAW LOADER ON OPERATING PERFORMANCE

N.A. Ashurov

“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”
National Research University

Annotation. This article experimentally investigates the impact of the number of drum blades in the straw loader attachment on the working quality of grain harvesters. During the study, the effect of changes in the number of blades on the straw throwing distance and loss rate was analyzed. Optimal parameters were determined, and it was shown that the most necessary and efficient number of blades is 4. The research results have practical significance for the improvement of agricultural machinery.

Keywords: straw loader, drum blades, throwing distance, losses, agricultural mechanization.

Kirish. Qishloq xo'jaligi sohasida texnika va texnologiyalarni takomillashtirish, qishloq xo'jaligida bajariladigan jarayonlarning o'z vaqtida samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, lalmi yerlarda g'allani yig'ib olishdan so'ng qolgan somonni nobudgarchiliksiz yig'ishtirib olish, chorvodorlarga yetqazib berish, muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Somon yuklagichlar qishloq xo'jaligida shu maqsadda keng qo'llaniladi.

Somon yuklagichlar turli konstruksiyalarda bo'lishi mumkin, lekin ularning ish samaradorligi asosan baraban parraklarining tuzilishi va soniga bog'liq. Parraklar soni ortishi somonni uzoqroq masofaga irg'itish imkonini bersa, ayni paytda nobudgarchilik miqdoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, kombaynlar uchun, somon yuklagich konstruksiyasini takomillashtirish, xususan, parraklar sonini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul texnikalarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Somon yuklagichlarning konstruksiyasi va ularning ishlash parametrlarini yaxshilash esa ishlab chiqarish jarayonining tezkorligini oshirish hamda yo'qotishlarni eng past darajaga yetkazish imkonini beradi. Shuningdek, ish jarayoni davomida yuzaga keladigan mexanik yuklamalarni kamaytirish va energiya sarfini qisqartirish masalalari ham tadqiqotda muhim o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqotda somon yuklagich baraban parraklar sonining ish sifatiga ta'siri tajribaviy yo'l bilan o'rganildi. Parraklar soni 2 dan 6 gacha oshirilib, somonni irg'itish masofasi va nobudgarchilik darajasi aniqlandi. Olingan natijalar asosida eng samarali parametrlar aniqlandi.

Tadqiqot uslubi. Tadqiqot laboratoriya sharoitida o'tkazilib, u yerda somon yuklagich moslama Casse-2366 kombayniga o'rnatilgan ishlab chiqarish parametrlarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Tajriba o'tkazishda quyidagi parametrlar o'rganildi:

baraban aylanishlar soni: 1750 r/min

baraban diametri: 750 mm

parraklar eni: 900 mm


parraklar balandligi: 25 cm

parraklar uchki qismining qayrilish burchagi: 120°

somon yuklagich quvur balandligi: 3000 mm

quvur qiyaligi: 55°

Tajribalar besh takrorlikda o'tkazildi. Har bir takrorda somonni irg'itish masofasi va nobudgarchilik darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlil o'tkazilib, har bir parametrlarning ta'siri baholandi. Tadqiqot davomida somon to'plamining bir tekis taqsimlanishi, somonni irg'itish burchagi va havo oqimi ta'siri kabi omillar ham hisobga olindi.



1-g'alla kombayn; 2-somon yuklagich moslama; 3-katta xajmli tirkama.

1-rasm. G'alla kombaynga o'rnatilgan somon yuklagich moslama texnologik ish jarayoni

Tajriba natijalari:

parraklar soni 2 dan 6 gacha oshirilganda somonni irg'itish masofasi 7,65 m dan 9,48 m gacha ortdi;

parraklar soni 2 dan 4 gacha oshirilganda irg'itish masofasi jadal oshdi (7,65 m dan 9,13 m gacha);


parraklar soni 5 va 6 ta bo'lganda irg'itish masofasi deyarli o'zgarmadi (9,36 m va 9,48 m);

somon nobudgarchiligi 2,9% dan 0,6% gacha kamaydi, 6 ta parrakda 0,7% ga ko'tarildi;

parraklar soni oshgani sayin somon bir tekis tarqalishi ta'minlandi, lekin 5 va 6 ta parrakli variantlarda samaradorlik oshishi juda oz bo'ldi.

Tadqiqot davomida havo oqimi ta'siri va somonning namligi kabi parametrlar ham irg'itish masofasiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Olingan natijalarga asosan somon yuklagich moslama konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Somon to'plamining bir tekis tarqalishini ta'minlash uchun parraklar burchagini o'zgartirish va havo oqimi kuchini oshirish muhimligi aniqlandi.




2-rasm. Parraklar soni va somonni irg'itish masofasi o'zgarishi.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, somon yuklagich barabanidagi parraklar sonining ortishi somonni irg‘itish masofasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Dastlab, parraklar soni 2 tadan 4 tagacha oshirilganda irg‘itish masofasi keskin ortib, 7.65 metrdan 9.13 metrgacha yetdi. Biroq, parraklar sonining 5 va 6 tagacha oshirilishi bilan irg‘itish masofasidagi o‘zgarishlar juda kam bo‘lib, mos ravishda 9.36 m va 9.48 m ni tashkil etdi. Bu esa 4 tadan ortiq parrak qo‘shish yuklagich samaradorligini sezilarli darajada oshirmasligini ko‘rsatadi.

3-rasmda esa somon yuklagich parraklar sonining somon nobudgarchiligiga ta‘siri aks ettirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, parraklar soni 2 dan 5 gacha oshirilganda nobudgarchilik darajasi 2.9% dan 0.6% gacha kamaygan. Bu esa somon yuklash jarayonida yo‘qotishlar kamayib borishini bildiradi. Biroq, parraklar soni 6 taga yetganda nobudgarchilik 0.7% gacha oshgan. Bu esa haddan tashqari ko‘p parrak qo‘shilganda somonning notekis tarqalishi va qo‘shimcha yo‘qotishlarning yuzaga kelishini anglatadi.

Umuman olganda, ushbu grafiklar asosida 4 ta parrak optimal variant sifatida aniqlanib, u yuklagich samaradorligini oshirish bilan birga somon nobudgarchiligini ham minimal darajaga tushirishga yordam beradi.



3-rasm. Parraklar soni va somon nobudgarchiligi o‘zgarishi.

Xulosa. Tajribalar natijalari asosida somon yuklagich moslama parraklar soni 4 dona bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Somonni irg‘itish masofasi 9,13 m ni tashkil etadi.

Somon nobudgarchiligi 1,3% gacha kamayadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligida lalmi va suvli yerlarda g‘allani yig‘ishtirishda qo‘llanilib kelinayotgan g‘alla kombayinlarga o‘rnatilib g‘alla o‘rilsa charvodor fermerlarning sifatli dag‘al ozuqaga bo‘lgan talabi qondiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванов П.А. Сельскохозяйственные машины. Москва: Колос, 2019.
2. Петров В.Г. Технологические процессы в сельском хозяйстве. Минск, 2021.
3. Кленин Н.И., Егоров В.Г. Сельскохозяйственные машины. Москва, 2018.
4. Лурье А.Б. Теория сельскохозяйственных машин. Санкт-Петербург, 2020.
5. Желиговский В.А. Механизация уборочных процессов. Ростов-на-Дону, 2017.
6. Савельев Ю.А. Современные зерноуборочные комбайны. Москва, 2022.



URUG'LIK CHIGITNI EKISHGACHA VA G'O'ZANI VEGETATSIYA DAVRLARIDA ULTRABINAFSHA NUR BILAN AVJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

B.S. Choriyev

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada urug‘lik chigitga ekish oldidan va g‘o‘zaga vegetatsiya davrida bosqichli ultrabinafsha nur (UBN) bilan ta’sir etish texnologiyasi imkoniyatlari natijasida g‘o‘zaning quyosh nuri va issiqligiga bo‘lgan talabi sun’iy energiya manbalari tomonidan qondirilishi tufayli g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi jadallashishi, vegetatsiya davri qisqarishi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan chidamliligi ortishi, eng muhimi, g‘o‘za hosildorligi va tolaning sifati oshishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, ultra binafsha nur, statsionar, urug‘lik chigit, g‘o‘za, elektravlantirgich, quvvat, akkumulyator, radioimpulsli bioavlantirgich, elektr texnologiyalar, chastota o‘zgartirgich, traktor, tok generatori.

TECHNOLOGY OF ULTRAVIOLET RADIATION STIMULATION OF COTTON SEEDS BEFORE SOWING AND DURING THE VEGETATION PERIOD OF COTTON PLANTS

B.S. Choriyev

“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”
National Research University

Abstract. This article talks about the acceleration of the growth and development of cotton due to the satisfaction by artificial energy sources of the need for cotton in sunlight and heat before sowing seed seeds and as a result of the possibility of a phased technology for exposing cotton to ultraviolet light during the growing season. shortening the growing season, increasing resistance to diseases and pests, and most importantly, about the scientific research carried out to increase cotton yield and fiber quality.

Key words: agriculture, ultra-purple light, stationary, seed seeds, cotton, electric motor, power, battery, radio pulse bio-motor, electrical technology, frequency converter, tractor, current generator

ТЕХНОЛОГИЯ СТИМУЛИРОВАНИЯ СЕМЯН ХЛОПЧАТНИКА УЛЬТРАФИОЛЕТОВЫМ ИЗЛУЧЕНИЕМ ПЕРЕД ПОСЕВОМ И В ВЕГЕТАЦИОННЫЙ ПЕРИОД РАСТЕНИЙ ХЛОПЧАТНИКА

Б.С. Чориев

«Ташкентский институт инженеров ирригации и сельскохозяйственной механизации»
Национальный исследовательский университет

Аннотация. В данной статье представлено исследование возможностей технологии постепенного облучения хлопчатника ультрафиолетом перед посевом и в период вегетации, позволяющей удовлетворить потребность хлопчатника в солнечном свете и тепле за счет искусственных источников энергии, что приводит к ускоренному росту и развитию хлопчатника, сокращению вегетационного периода, повышению устойчивости к болезням и вредителям, а главное - повышению урожайности хлопчатника и качества волокна.

Ключевые слова: сельское хозяйство, ультрафиолетовыми лучами (УФЛ), стационарные, семена хлопчатника, хлопчатник, электродвигатель, мощность, аккумулятор, радиоимпульсный биостимулятор, электрические технологии, преобразователь частоты, трактор, генератор тока

Kirish. Paxtachilik Jahonda va O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yetakchi tarmoq hisoblanadi. Shu tufayli ham respublika rahbariyati tomonidan paxtachilik sohasini fan va texnika yutuqlari, ya’ni innovatsion texnologiyalar asosida yuksaltirishga katta e’tibor berilmoqda.

Shuningdek, ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2022 yildagi “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2023 yildagi PQ-391-sonli “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida keltirilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan [1; 2].

Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish, kasalliklar va suvsizlikka chidamli, tezpishar yangi navlarini yaratish, tuproq unumdorligini oshirish, zararkunandalarga qarshi kurashning ekologik toza usullarini yaratish, yangi turdagi qishloq xo‘jalik texnikasi majmualarini yaratish va ularni ishlab chiqarishni tashkillashtirish respublikamiz ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir [3].

Hozirgi kunda ekinlar mahsuldorligini oshirish uchun an’anaviy agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish bilan birga, yangi resurslardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Bu vaziyatda urug‘ va qishloq xo‘jaligi ekinlarining ichki fiziologik imkoniyatlarini ochish va ularni boshqarish hisobiga ekinlar mahsuldorligini oshirish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bu maqsadga “urug‘, tuproq va o‘simlik” dan iborat murakkab biologik ob’ektga elektr ta’sir o‘tkazish hisobiga erishish mumkinligi 1995 yilda professor A.Muxammadiev tomonidan asoslangan va uning ilmiy rahbarligida XXI asrning o‘tgan birinchi 20 yilida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida va shogirdlari tomonidan yoqlangan dissertatsiyalarida turli qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishda isbotlangan. [4,5]

Ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasi va bugungi kunda ham yaratilayotgan yangiliklar eng avvalo resurs tejovchi, ekologik toza, hosildorlikni oshiruvchi, mahsulot sifatiga ijobiy ta’sir etuvchi va iqtisodiy jihatdan yuqori samara berishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqotlar natijasi hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan yana bir usul yuzaga kelgan. Bu ultrabinafsha nurdan qishloq xo‘jaligida foydalanishdir.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini elektravlantirish texnologiyasini sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan tog‘oldi, cho‘l, tekislik va yaylovlardagi dalalarda hamda issiqxonalarda yetishtiriladigan barcha qishloq xo‘jalik ekinlari, gullar, har xil dekorativ dorivor o‘simliklar, cho‘l va yaylov o‘tlari hamda mevali, manzarali o‘rmon daraxtlarini o‘stirishda qo‘llash mumkin [6,7].

Urug‘lik chigit paxta zavodlarida toladan ajratilgandan keyin bahorgi mavsumgacha maxsus qog‘oz yoki polietilen qoplarda saqlanadi. Urug‘ saqlanadigan omborxonalar albatta fungitsidlar

bilan ishlov berilgan bo'lmog'i, urug'lik chigit esa kimyoviy preparat bilan ishlovdan o'tkazilishi lozim, aks holda mavsumgacha vilt, gammoz ildiz chirish va boshqa kasalliklarga chalinishi mumkin.

Urug' va omborxonalarga kimyoviy ishlov berish ko'p hollarda qo'shimcha valyutada sarf xarajatlarni talab qiladi. Bu urug'lik chigitning tan narxini oshiradi. Urug' va omborxonalarga kimyoviy ishlov berish atrof muhitni zaharlaydi, shuningdek ushbu texnologik jarayonni boshqaradigan operatorlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada doirasida urug'lik chigitni saqlash davrida unga va omborxonalarga ishlov berishni ekologik sof uslubini yaratish shu kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu muammoni yechishda ultrabinafsha nurlardan foydalanish talab etiladi. Ultrabinafsha nur bilan ishlov berilgan urug'lik chigit laboratoriyada unuvchanlikga, dala sharoitida unuvchanlikga, yashovchanlikga shuningdek, chigitlarga ekish oldidan va g'o'zaga vegetatsiya davrida bosqichli ultrabinafsha nur bilan ishlov berish natijasida g'o'zaning quyosh nuri va issiqligiga bo'lgan talabi sun'iy energiya manbalari tomonidan qondirilishi tufayli g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi jadallashishi, vegetatsiya davri qisqarishi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan chidamliligi ortishi, eng muhimi, g'o'za hosildorligi va tolaning sifati oshishi tajribalarimizda o'rganildi.

Mazkur zamonaviy agroelektrotexnologiya, ayniqsa, iqlimi keskin o'zgaruvchan bo'lgan O'zbekiston sharoiti uchun juda mos keladi. Shu bilan birga, paxtachilikda ultrabinafsha nur bilan ishlov berish texnologiyasini tadbiq etish natijasida boshqa qo'llanilib kelinayotgan avjlantirgichlardan farqli ravishda, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish imkoniyati tug'iladi [8].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda, respublikamizning jahonda asosiy paxta yetishtiruvchi davlatlar ichida eng shimolda joylashganligini, bahor faslining uzoq davom etishi, g'o'za vegetatsiya davrining dastlabki oylarida quyosh nuri va issiqligining yetishmasligini inobatga olgan holda tanlangan mavzuni ilmiy va amaliy jihatdan o'ta dolzarbligini va bugungi kun talablariga to'liq javob berishini ko'rsatadi.

Materiallar va uslublar. Ultra binafsha nurlanishning o'simlikka ta'siri ko'pchilik ishlarda bir biriga qarshi natijalar olinishi natijasida UBN o'simlikka umumiy ta'siri bo'yicha keng qamrovli va chuqur ishlanishlar o'tkazishga undadi. UBN manbalari va spektral tavsifi farqlanadigan turli firmalar ishlab chiqqan yorug'lik filtrlari qo'llanilganligi sababli yorug'lik to'liqini uzulmadan foydalanilgan ko'rsatkichlarni bog'liqligini aniqlab bo'lmadi.

O'tkazgan tajriba natijalariga ko'ra, qator oralariga ishlov va o'g'it solish bilan bir vaqtning o'zida UBN va elektr jonlantirilgan suv purkash variantini qo'llash mumkin. Bu variantlarning har biri amalda deyarli bir xil samara beradi. Shu sababli amalda u yoki bu variantni qo'llash ushbu texnologiyani qo'llaydigan xo'jalikning texnikaviy imkoniyatlariga bog'liq [9].

So'nggi 30-40 yil davomida olib borilgan ilmiy ishlar natijasida elektr ishlov berishning agronomiya fanini rivojlanishidagi ahamiyati isbot qilindi. Qishloq xo'jalik ekinlari urug'lari va vegetativ qismlariga elektr ishlov berishning: hosildorlikni oshirishi, fiziologik jarayonlarni boshqara olish imkoniyati, mahsulot sifatini yaxshilashi va ularni saqlashdagi afzalliklari aniqlandi [10].

Har xil fizik omillar urug'ning unish jarayoniga o'ziga xos usulda ta'sir etadi. Fizik omillarning maqbul me'yori ta'sirida, masalan, ionizatsiyalashtirilgan nurlatish, ultratovush, lazer nuri, impulsli tok, elektr va magnit maydoni ta'sirida deyarli bir xil kompleks o'zgaruvchanlik kuzatiladi. Bu tirik organizm hujayrasiga ta'siri natijasida yuzaga keladigan javob reaksiyasi natijasidir. Urug'ning unish jarayoniga har xil omillar ta'siri deyarli bir xil va 10-15 foizdan oshmaydi [11].

Bir qator mualliflar tajribalarida yosh nihollar va gullash davrida bo'lgan o'simliklarni UBN ga sezgirliги oshishi ma'lum bo'lgan. Bunday sezgirlik davri o'stiruvchi moddalarni konsentratsiyasining yuqori bo'lishiga bog'liq bo'lib, bunda UBN lariga sezuvchanlik o'suv nuqtasi

ekanligi aniqlangan. UBN ga o'simliklarni reaksiyasi uchun o'stiruvchi moddalarni ahamiyati katta bo'lib, Brodfyurening ta'kidlashicha, UBN ning qo'llanilgan me'yoriga bog'liq holda o'simliklarni o'sishini to'xtatuvchi yoki tezlatuvchi sifatida ta'sir etadi [12].

Hozirgi vaqtda ekologik toza texnologik operatsiyalar yaratish hayotiy zaruriyat bo'lib qolmoqda. Fanda bu sohada elektr energiyasidan foydalanish zararsiz va arzon usuldir. Respublikamizning ilmiy tadqiqot institutlarida keyingi yillarda urug'lik chigitga va g'o'zaga vegetatsiya davrida elektr bilan ta'sir ko'rsatish usullari bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar o'tkazilgan [13].

Natijalar va ularning tahlili. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga asosan, chigitga ekishdan oldin va g'o'zaga vegetatsiya davrida UBN bilan ishlov berish natijasida g'o'zalarning o'sishi va rivojlanishi nazorat variantidagi g'o'zalarga nisbatan jadalligi aniqlandi. Bu hodisa ushbu davrda o'simlikda fiziologik jarayonlarni tezlashayotganligi bilan izohlanadi.

Butun vegetatsiya davri davomida UBN bilan ishlov berilgan chigitlardan unib chiqqan g'o'za nihollari o'sish va rivojlanish jadalligi bilan nazorat variantidagi g'o'za nihollaridan farq qildi.


Tanlab olingan Chimboy-5018, C-6524 va Namangan -77 g'o'za navlarining chigitiga tajriba variantlariga 10 minut davomida UBN ishlov berildi (1-rasm).



1-rasm. Chimboy-5018, S-6524 va Namangan -77 g'o'za navlarining chigitlariga UBN bilan ta'sir etish jarayoni

Ekilgan chigitlarning unishini kuzatish ishlari chigit ekilgandan 5 kun keyin boshlandi va quyidagi natijalar olindi.


Dala sharoitida olib borilgan kuzatishlar natijalariga ko'ra, UBN bilan ishlov berilgan variantlardagi g'o'za navlarining chigitlaridan sog'lom va baquvvat bo'lgan g'o'za nihollari unib chiqdi va chigitlar unuvchanligini o'rganilganda, Namangan-77 g'o'za navining nazorat variantida dala unuvchanligi 65,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba variantida esa bu ko'rsatkich 81,6 % ni tashkil etdi. Chimbay-5018 g'o'za navining nazorat variantida chigitlarning dala unuvchaligi 73,0 % ni tashkil etgan holda, tajriba variantida 79,3 % ni, C-6524 g'o'za navining nazorat variantida chigitlarning dala unuvchanligi 66,5 % bo'lib, tajriba variantida 81,0 % tashkil etdi. (2-rasm)



2-rasm. Dala sharoitida g'o'za nihollarining unib chiqish energiyasiga UBN bilan ishlov berishning ta'siri, %.

Nazorat variantiga nisbatan ekish oldidan UBN bilan ishlov berilgan tajriba variantlarida chigitni dala unuvchanligi Namangan-77 g'oz'ga navida 15 %, Chimbay-5018 g'oz'ga navida 6,9 %, S-6524 g'oz'ga navida esa 14,5 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, Namangan-77 g'oz'ga navida nazorat, ya'ni UBN bilan ishlov berilmagan variantda chigitning unib chiqish energiyasi 78,4 %, unuvchanlik darajasi esa 96,8 % bo'lgani holda, chigitga 5 minut davomida UBN bilan ishlov berilganda unib chiqish quvvati 80,1 % ni, unuvchanligi 97,7 % ni, chigitga 10 minut davomida UBN bilan ishlov berilganda esa unib chiqish quvvati 84,4% ni, unuvchanligi 98,5 % ni tashkil etdi. 10 minut davomida UBN bilan ishlov berilganda nazoratga nisbatan unib chiqish energiyasi 8,7 % ga, unuvchanligi esa 1,5 % ga oshganligi aniqlanib, eng yaxshi natijalarga erishilganligi qayd qilindi. Chigitga 15 minut davomida UBN bilan ishlov berilganda unib chiqish energiyasi 82,1 % ni, unuvchanligi 98,2 % ni tashkil etib, UBN bilan ishlov berish vaqtini oshirilishi chigitni unib chiqish quvvati va unuvchanligiga nisbatan salbiy ta'sir etishi mumkinligi isbotlandi (3-rasm).



3-rasm. Laboratoriya sharoitida g'oz'ga nihollarining unib chiqish energiyasiga UBN bilan ishlov berishning ta'siri, %.

Tajribalar natijalariga ko'ra shunday xulosa qilish mumkinki, o'rganilgan Namangan-77, Chimbay-5018 va C-6524 g'oz'ga navlarining chigitlariga maqbul me'yordagi UBN bilan ishlov berish ijobiy ta'sir etadi va aksincha, ortiqcha me'yordagi UBN bilan ishlov berish optimalga nisbatan biroz salbiy ta'sir etishi aniqlandi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, har uchala navlarning chigitiga ortiqcha me'yorda, ya'ni 10 minut davomida UBN bilan ishlov berilishi tufayli chigitning unib chiqish energiyasi (2-rasm) va unuvchanligi (3-rasm) baribir nazorat varianti ko'rsatkichidan yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Demak, UBN bilan ishlov berilganda g'oz'ga nihollari baravj o'sib rivojlanib, ko'p miqdorda quruq massa hosil qilishi to'planayotgan hosil salmog'iga ijobiy ta'sir etishidan dalolat beradi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra, g'oz'ga vegetatsiya davrining dastlabki fazalarida, ya'ni chigitga ekish oldidan, amal davrida o'simlikning chinbarg chiqarish va shonalash fazalarida UBN bilan ishlov berilganda g'oz'zaning o'sishi va rivojlanishini jadallashishi bilan birga umumiy barglar sonini oshganligi kuzatildi.

Tajribada UBN bilan ishlov berish samaradorligi o'rganilgan g'oz'ga navlarining chigitlariga ekishdan oldin, o'simlik chinbarg chiqarish va shonalash fazalarida UBN bilan ishlov berilganda barg yuzasi boshqa variantlarga nisbatan ko'pligi bilan ajralib turdi. G'oz'zani hosil to'plash davrida barg

sathi yuzasi tajriba variantlarida nazorat variantiga nisbatan gektariga 5-7 ming m² gacha ortganligi ma'lum bo'ldi.

Barg sathining oshishi o'simlikda kechadigan assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlarining faollashishiga sabab bo'ldi. Natijada, o'simlikda vegetativ va generativ organlarning hosil bo'lishi jadallashdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki paxta yetishtirishda amaldagi agrotehnologiya bilan moslashtirilgan urug'lik chigitni ekish oldidan avjlantirilsa va kasallik hamda zararkunandalardan zararsizlantirish, vegetatsiya davrida g'o'zani avjlantirish hisobiga paxtadan son va sifat ko'rsatkichlari yuqori hosil olish mumkinligi isbotlangan.

Laboratoriya va dala sharoitida olib borilgan bir va ko'p omilli tajribalar natijalariga ko'ra o'rta tolali Namangan-77, Chimboy-5018 va C-6524 g'o'za navlarining urug'lariga 10 minut davomida to'liq uzunligi 253,7 nm va quvvati 60 W UBN lampalari bilan elektr ta'sir qilinganda: – unish quvvati mos ravishda

- laboratoriya va dala sharoitida ham sezilarli darajada yuqori bo'lganligi;
 - hosil elementlarining to'kilishi kamayganligi tajriba variantlarida vegetatsiya fazalarini barvaqt o'tishi xosilning pishib etilishi 5-7 kunga tezlashganligi;
 - Qo'shimcha yetishtirilgan paxta hosili nazoratga nisbatan oshganligi;
 - G'o'zaga chinbarg chiqarish va shonalash fazalarida UBN bilan ishlov berilganda g'o'zani o'sishi rivojlanishi hosil to'plashi barg sathi yuzasi va quruq massa og'irligiga ijobiy ta'sir etganligi;
- Paxta tolasining texnologik ko'rsatkichlari UBN bilan elektr ishlov berilganda yaxshilanib, tola chiqishi yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2022 yildagi "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2023 yildagi PQ-391-sonli "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Мухаммадиев А. "Агриксим" QKning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Innovatsiya vazirligi tomonidan I-BV-2019-18 raqamli «G'o'za tuplariga kimyoviy ishlov berish, elektravlantirish, defoliatsiya i desikatsiyalash texnologiyasi va texnikaviy vosita ishlab chiqish» (2019-2020yy.) mavzusida ilmiy-tadqiqot loyihasi yakuniy hisoboti.
4. Мухаммадиев А., Автомонов В.А., Арипов А.О., Сафаров К.С., Санамян М.Ф., Шадманов Р.К., Эгамбердиев Р.Р., Айтжанов Б.У., Влияние электрообработки на рост, развитие и продуктивность хлопчатника, Ташкент, ИТА Пресс, 2016, 287 с.
5. Мухаммадиев А. и другие, Электротехнология в сельском хозяйстве Узбекистана. ТИҚХММИ типографияси. Тошкент 100000, Қори Ниёзий кўчаси. 39 уй. 2020 г. 82 с.
6. Bayzakov T.M., Tursunov A.M., Choriyev B.S. Paxta chigitini ekishga tayyorash jarayonida elektr avjlantirgichni qo'llash. Monografiya. Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqildi va chop etishga ruxsat berildi (dalolatnoma № 3. 30.03.2024-yil) ToshDAU tahririyati-nashriyot bo'limining RIZOGRAF apparatida chop etildi. Tashkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. 60 bet.

7. Muxammadiev A., Choriyeв B.S. Ekishgacha saqlash davrida urug'lik chigitga ultrabinafsha nur elektravlantirish qurilmasi bilan ta'sir etish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 1(38) 15/01/2024y 5-9 betlar.
8. Muxammadiev A., Choriyeв B.S., Rajapov Z.S. Электростимуляция семян, почвы и растений. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 3(40) 15/02/2024y 136-139 betlar.
9. Muxammadiev A., Turapov I.M., Bayzakov T.M., Avtonomov V.A., Egamberdiev R.R., Aripov A.O., Choriyeв B.S. “Агроэлектротехнология стимуляции хлопчатника и других сельхозкультур”. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti, Agrosanoat majmuasi uchun fan, ta'lim va innovatsiya, muammolar va istiqbollar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani». 2-son, 22-23 noyabr 2019 yil. TOSHKENT – 2019. 35-39 betlar.
10. Muxammadiev A., Turapov I., Aytjanov U., Egamberdiev R., Aripov A., Choriyeв B.S. “Агроэлектротехнология стимуляции хлопчатника и других сель-хозкультур с использованием ультрафиолетового излучения” “Управление земельными ресурсами и их оценка: новые подходы и инновационные решения”, Материалы российско-узбекской научно-практической конференции, посвященной 100 летию Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Москва-Ташкент 2019. 293-301 ст.
11. Muxammadiev A., Choriyeв B.S. Urug', tuproq va o'simliklarni elektravlantirish Toshkent davlat agrar universiteti “Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami (2024 yil 26 noyabr) Toshkent-2024 305-311 betlar.
12. Muxammadiev A., Choriyeв B.S. Энергоснабжение мобильных установок электрообработки почв и растений от фотоэлектрических батарей. Toshkent davlat agrar universiteti “Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami (2024 yil 26 noyabr) Toshkent-2024. 321-325 betlar.
13. Ashiraf Mukhammadiev, Kenzhemirza Baymakhanov, Bekzod Choriyeв, Zilola Hakimova, Zafar Radjapov. Nutritional regime, trace element composition and microbiological nutritional value of soils under various crops under the influence of electrical treatment. 4th International Conference on Research of Agricultural and Food Technologies I-CRAFT 2024 September 11& 13 Tashkent, UZBEKISTAN ISBN: 978-625-99572-2-7. 53-57 betlar.

YUQORI YARUS KORPUSIDAN UNDA OLDINDA JOYLASHGAN PASTKI YARUS KORPUSIGACHA BO'LGAN BO'YLAMA MASOFANI IKKI YARUSLI DISKLI PLUGNING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI BO'YICHA O'TKAZILGAN TAJIRIBA NATIJALARI

Sh.U. Ishmuradov¹, A. To'xtaqo'ziyev², R.K. Hamroyev¹, T.K. Beketov¹

¹Toshkent davlat texnika universiteti

²Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tajribaviy tadqiqotlar ikki bosqichda olib borilgan bo'lib, birinchi bosqich bo'yicha tajribalarni o'tkazishda yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofani 20 cm dan 40 cm gacha o'zgarishi bilan o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi har ikkala harakat tezligida ham ortgan, 40 cm dan 60 cm gacha ortganda esa bu ko'rsatkichlar o'zgarimasdan qolganligi. Bu ham yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa 40 cm dan kichik bo'lganida ular orasiga begona o'tlar va o'simlik qoldiqlari tiqilishi bilan tushuntirish mumkinligi to'g'risida olib borilgan dala tajriba natijalari keltirilgan

Tayanch so'zlar: Ikki yarusli diskli plug, qurilma ramasi, osish qurilmasi, asosiy (pastki) diskli korpus, yuqori korpus, tayanch g'ildirak, tayanch disk, tayanch diskni rostlash qurilmasi, ko'ndalang bruslar, qiya bruslar va bo'ylama bruslar, yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar, tuproqning uvalanish darajasi, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi, plugning tortishga solishtirma qarshilik, ish tezliklar.

РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВЛИЯНИЯ ПРОДОЛЬНОГО РАССТОЯНИЯ ОТ КОРПУСА ВЕРХНЕГО ЯРУСА ДО РАСПОЛОЖЕННОГО ВПЕРЕДИ КОРПУСА НИЖНЕГО ЯРУСА НА ЭКСПЛУАТАЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДВУХЪЯРУСНОГО ДИСКОВОГО ПЛУГА

Ш.У. Ишмурадов¹, А. Тухтакузиев², Р.К. Хамроев¹, Т.К. Бекетов¹

¹Ташкентский государственный технический университет

²Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства

Аннотация: В данной статье представлены результаты экспериментальных исследований, проведённых в два этапа. На первом этапе при проведении опытов было установлено, что при изменении продольного расстояния между корпусом верхнего яруса и расположенным впереди корпусом нижнего яруса от 20 см до 40 см наблюдается увеличение полноты и глубины заделки растительных остатков при обеих скоростях движения. При дальнейшем увеличении данного расстояния от 40 см до 60 см указанные показатели практически не изменялись. Это можно объяснить тем, что при продольном расстоянии между

корпусами менее 40 см между ними происходит застревание сорных растений и растительных остатков. В статье приведены результаты полевых экспериментов, подтверждающие данные закономерности.

Ключевые слова: двухъярусный дисковый плуг, рама устройства, навесное устройство, основной (нижний) дисковый корпус, верхний корпус, опорное колесо, опорный диск, устройство регулирования опорного диска, поперечные брусья, наклонные брусья, продольные брусья, расстояние смещения корпуса верхнего яруса относительно корпуса нижнего яруса в поперечном направлении, продольное расстояние от корпуса верхнего яруса до расположенного впереди корпуса нижнего яруса и от корпуса нижнего яруса до расположенного впереди корпуса верхнего яруса, степень крошения почвы, полнота и глубина заделки растительных остатков, удельное тяговое сопротивление плуга, рабочая скорость.

RESULTS OF EXPERIMENTAL STUDIES ON THE EFFECT OF THE LONGITUDINAL DISTANCE BETWEEN THE UPPER-TIER BODY AND THE LOWER-TIER BODY LOCATED AHEAD OF IT ON THE PERFORMANCE INDICATORS OF A TWO-TIER DISK PLOW

Sh.U. Ishmuradov¹, A. Tukhtakuziev², R.K. Hamroev¹, T.K. Beketov¹

¹Tashkent State Technical University

²Scientific Research Institute of Agriculture Mechanization

Abstract: This article presents the results of experimental studies conducted in two stages. At the first stage, during the experiments it was determined that when the longitudinal distance between the upper-tier body and the lower-tier body located ahead of it increased from 20 cm to 40 cm, the completeness and depth of incorporation of plant residues increased at both operating speeds. When this distance was further increased from 40 cm to 60 cm, these indicators remained almost unchanged. This can be explained by the fact that when the longitudinal distance between the bodies is less than 40 cm, weeds and plant residues tend to accumulate and become clogged between them. The paper presents the results of field experiments confirming these findings.

Keywords: two-tier disk plow, machine frame, hitch mechanism, main (lower) disk body, upper body, support wheel, support disk, support disk adjustment mechanism, transverse beams, inclined beams, longitudinal beams, transverse displacement distance of the upper-tier body relative to the lower-tier body, longitudinal distance between the upper-tier body and the lower-tier body located ahead of it and between the lower-tier body and the upper-tier body located ahead of it, soil crumbling degree, completeness and depth of plant residue incorporation, specific draft resistance of the plow, operating speed.

Kirish. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida energiya-resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalari keng joriy etilishi munosabati bilan yerlarga asosiy ishlov berish(shudgorlash)da diskli, ya'ni ish organi sferik disk ko'rinishida bo'lgan pluglarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular ag'dargichli pluglarga nisbatan tortishga kam qarshilik ko'rsatadi, ish unumi yuqori, o'simlik qoldiqlari va begona o'tlarga tiqilmasdan ishlaydi[1].

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalarini tekshirib ko'rish hamda ikki yarusli diskli plug parametrlari kam energiya sarflagan holda tuproqqa sifatli hamda agrotexnika talablari bo'yicha ishlov berilishini ta'minlovchi qiymatlarini aniqlash maqsadida tajribaviy tadqiqotlar dasturiga

quyidagilar kiritildi:

- tajribaviy, tadqiqotlarni o'tkazish uchun dala qurilmasini ishlab chiqish va yasash;
- ikki yarusli diskli plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalari, plugning tayanch tekisligidan uning osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofasi va agregat harakat tezligini tuproqning uvalanish sifati, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi va plugning tortishga solishtirma qarshiligiga ta'sirini o'rganish;
- tajribalarni matematik rejalashtirish usulini qo'llab, ikki yarusli diskli plug parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash.


Materiallar va uslublar. Sinovlar QXMITI tajriba uchastkasining bug'doydan bo'shagan va nam suvi berilgan dalalarida o'tkazildi.

Yo'qoridagi 1-jadvalda tajribalarni o'tkazishdan oldin dala tuprog'ining namligi, qattiqligi, undagi ang'izning miqdori va balandligi bo'yicha tavsifi keltirilgan.

Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazishda ikki yarusli diskli plug New holland TD5.110 rusumli haydov traktoriga qo'shib ishlatildi.

Tajribalarni o'tkazishda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi O'zDSt 3193:2017 «Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli» bo'yicha tenzometrik barmoqlar qo'llanilib, agrotexnik ko'rsatkichlari esa O'zDSt 3355:2018 «Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproqqa chuqur ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari» bo'yicha aniqlandi [2;3.].

Dala qurilmasi 2,0-3,0 klass traktorlarga osma variantda institut konstruktorlik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan chizmalar bo'yicha tayyorlandi. Nazariy tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, ish organi sifatida diametri 560 mm va egrilik radiusi 660 mm bo'lgan sferik sirtli diskleri qabul qilindi. 1-rasmda ikki yarusli diskli plug dala qurilmasining umumiy konstruktiv sxemasi keltirilgan. . rama 1, bo'ylama bruslar 2, tayanch g'ildirak 3, qiya bruslar 4, ko'ndalang bruslar 5, tayanch disk 6, tayanch diskni rostlash mexanizmi 7, pastki yarusli korpuslar 8, yuqorigi yarusli korpuslar 9, osish qurilmasi 10 dan tashkil topgan.



- 1-rama; 2-bo'ylama bruslar; 3-tayanch g'ildirak; 4-qiya bruslar; 5-ko'ndalang bruslar;
6- tayanch disk; 7-tayanch diskni rostlash mexanizmi; 8-pastki yarusli korpuslar; 9-yuqorigi yarusli korpuslar; 10-osish qurilmasi;

1-rasm. Ikki yarusli diskli plug dala qurilmasining konstruktiv sxemasi.

Osish qurilmasi va tayanch g'ildiragining ramaga o'rnatilish joyini keng oraliqda o'zgartirish imkoniyatiga ega etib ishlangan. Yuqori yarus korpuslarining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi ko'ndalang bruslar 5 da qiya bruslar 4 ni bir biriga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda surish yo'li bilan, yuqorigi yarus korpusdan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusdan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalarni qiya bruslar 4 da pastki va yuqorigi korpuslarni bir biriga nisbatan oldinga yoki orqaga surush yo'li bilan o'zgartiriladi.

Osish qurilmasining holati osish kronshteynlarni ko'ndalang brus 5 da o'ng va chap tomonga va tayanch g'ildiragining holati uni bo'ylama brus 2 da oldinga yoki orqaga surish yo'li bilan o'zgartiriladi.

Tajribaviy tadqiqotlar ikki bosqichda olib borildi. Birinchi ikki yarusli diskli plug yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalari ikki yarusli diskli plugning tayanch tekisligidan uning osish qurilmasining pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofasi va agregat harakat tezligini tuproqning uvalanish sifati, o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi hamda plugning tortishga solishtirma qarshiligiga ta'siri o'rganildi. Ikkinchi bosqichda esa tajribalarni matematik rejalashtirish usuli qo'llanilib, ko'p omilli tajribalar o'tkazildi.

Har ikkala bosqichda ham tajribalar QXMITI tajriba uchastkasining bug'doydan bo'shagan va nam suvi berilgan dalalarida o'tkazildi. Quyidagi 1-jadvalda tajribalarni o'tkazishdan oldin dala tuprog'ining namligi, qattiqligi, undagi ang'izning miqdori va balandligi bo'yicha tavsifi keltirilgan.

1-jadval

Tajribalar o'tkazilgan dalaning tavsifi

t/r	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarning qiymati
1.	Tuproqning qatlamlar bo'yicha (cm) namligi, %: 0-10 10-20 20-30	11,9 15,0 17,1
2.	Tuproqning qatlamlar bo'yicha (cm) qattiqligi, MPa: 0-10 10-20 20-30	0,63 1,82 2,88
3.	Sug'orish egatlarining chuqurligi, cm: M_o' $\pm\sigma$	14,6 2,3
4.	1 m ² yuzadagi o'simlik qoldiqlari, kg	0,489
5.	Ang'izning balandligi, cm: M_o' $\pm\sigma$	24,3 4,2

Natijalar va ularning tahlili. Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazishda qurilma New holland TD5.110 rusumli haydov traktoriga qo'shib ishlatildi.

Tuproqning uvalanish sifatini aniqlash uchun olti takrorlikda $0,25 \text{ m}^2$ maydonchadan namunalar olindi. Buning uchun tomonlari $0,5 \times 0,5 \text{ m}$ bo'lgan tagi ochiq qutidan foydalanildi. Olingan natijalar 50 va 25 mm li teshiklari bo'lgan elaklardan o'tkazildi. Har bir elakda qolgan va oxirgi elakdan o'tgan fraksiyalar massasi RP-100Sh13 tarozisida tortilib, 50 mm dan katta, 50-25 va 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori foizda aniqlandi va bunda o'lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar tuproqning uvalanish darajasi sifatida qabul qilindi

Tuproqni elashda katta teshiklari bo'lgan elakdan kichik o'lchamli teshiklari bo'lgan elaklarga o'tish tartibi qo'llanildi.

Ikki yarusli diskli plug bilan shudgorlangan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishini aniqlash uchun qurilma o'tgandan keyin uning butun qamrash kengligi bo'yicha harakat yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalishda dala yuzasiga parallel o'rnatilgan reyka bilan uning ko'ndalang profili aniqlandi. Bunda o'lchovlar 5 cm interval bilan $\pm 0,5 \text{ cm}$ aniqlikda olib borildi.

Tajribalarni o'tkazishdan oldin va o'tkazib bo'lingandan keyin tenzobarmoqlar tarirovka qilindi. Bunda pastki o'ng va chap tenzobarmoqlarga 0-20 kN oraliqda 4,0 kN interval bilan, yuqorigi tenzabarmoqqa 0-10 kN oraliqda 2,0 kN interval bilan yuklanishlar berildi. Tarirovkadagi xatolik 1,6 % ni tashkil etdi.

Tarirovkada olingan ma'lumotlar bo'yicha tarirovka koeffitsenti aniqlandi. So'ngra tajribalarda olingan ma'lumotlar tarirovka koeffitsentiga ko'paytirildi va tortishga solishtirma qarshilik kuchining haqiqiy qiymati aniqlandi.


Tenzometriya o'tkazishda tenzobarmoqdan chiqayotgan signallarni qayd etish uchun IP-264BS o'lchash apparaturasidan foydalanildi.

Birinchi bosqich bo'yicha tajribalarni o'tkazishda yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljish masofasi 5 cm interval bilan 10-30 sm gacha, plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar 10 cm interval bilan 20-60 sm gacha, Har bir variant agregatning 6 va 9 km/h tezliklarida o'tkazildi. Bundan tashqari bir parametr o'zgartirilganda boshqa parametrlar doimiy bo'ldi, ya'ni o'zgarishdan qoldi. Barcha variantlar uchun haydov chuqurligi bir xil va 30 sm etib belgilandi.

Bu tajribalarni o'tkazishda ish organlarining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 40° , tikka nisbatan o'rnatilish burchak 20° hamda plugning yuqori yarus korpusining pastki yarus korpusiga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda siljishi va pastki yarus korpusidan undan oldinda joylashgan yuqorigi yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofalar mos ravishda 20 va 50 cm, ishlov berish chuqurligi 30 cm va agregatning harakat tezligi esa 6 va 9 km/h etib belgilab olindi. Tajribalarda ikki yarusli diskli plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofani 20 cm dan 50 cm gacha o'zgarishini uning agroteknik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tajribalarda olingan natijalar 2-jadval hamda 2-rasmda keltirilgan. Ulardan ko'rinib turibdiki, yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofani 20 cm dan 40 cm gacha o'zgarishi tuproqning uvalanish sifatini yaxshilanishiga, ya'ni 50 mm dan kichik fraksiyalar miqdorini ko'payib, katta kesaklar miqdorini kamayishiga olib kelgan. Agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda bu ko'rsatkich 81,5 % dan 90,6 % gacha ortgan bo'lsa, 9 km/h harakat tezligida 83,6 % dan 92,7 % gacha ortgan. Bu masofa 40 cm dan 60 cm gacha o'zgarganda esa bu ko'rsatkich o'zgarishsiz qolgan. Buni ushbu masofa kichik bo'lganda plugning yuqorigi yarus korpusi va undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusi orasiga begona o't hamda o'simlik qoldiklarining tiqilib qolishi bilan izohlash mumkin.

2-jadval.

Yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa, cm	Tuproqning uvalanish darajasi, %	O'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi, cm	O'simlik qoldiqlarining ko'milish chuqurligi, cm	Plugning tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
V=6 km/soat				
20	81,5	83,9	14,9	8,72
30	87,6	90,5	19,6	8,2
40	90,6	94,2	22,6	7,75
50	90,9	95,6	23,2	7,98
60	91,1	95,5	21,4	8,35
V=9 km/soat				
20	83,6	84,6	16,1	8,87
30	89,7	92,2	22,1	8,35
40	92,7	95,8	23,9	7,9
50	93,3	97,4	24,3	8,13
60	93,2	97,1	22,6	8,5



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 9 km/h bo'lganda

2-rasm. Yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa(l_1)ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<50}$), o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi (O'_t), o'simlik qoldiqlarining ko'milish chuqurligi (O'_{ch}) va tortishga solishtirma qarshilik (R_c)ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofani 20 cm dan 40 cm gacha o'zgarishi bilan o'simlik qoldiqlarining ko'milish to'liqligi va chuqurligi har ikkala harakat tezligida ham ortgan, 40 cm dan 60 cm gacha ortganda esa bu ko'rsatkichlar o'zgarmasdan qolgan. Bu ham yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa 40 cm dan kichik bo'lganida ular orasiga begona o'tlar va o'simlik qoldiqlari tiqilishi bilan tushuntirish mumkin.

Yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa ortishi bilan plugning tortishga solishtirma qarshiligi oldin kamayib, keyin o'zgarmasdan qolgan. Bu masofa 20 cm dan 40 cm gacha ortganda va agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda plugning tortishga solishtirma qarshiligi 0,97 kN/m ga kamaygan bo'lsa bo'ylama masofa 40 cm dan 60 cm gacha ortganida deyarli o'zgarmagan, agregat harakat tezligida 9 km/h bo'lganda ham bu ko'rsatkich xuddi shunday avval 0,97 kN/m ga kamayib, keyin o'zgarmagan. Buni yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa 40 cm dan kichik bo'lganida korpuslar orasiga begona o't va o'simlik qoldiqlari tiqilib qolishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Agregat harakat tezligi 6 km/h bo'lganda plugning tortishga solishtirma qarshiligi kamaygan bo'lsa bo'ylama masofa 40 cm dan 60 cm gacha ortganida deyarli o'zgarmagan, agregat harakat tezligida 9 km/h bo'lganda ham bu ko'rsatkich xuddi shunday avval kamayib, keyin o'zgarmagan. Buni yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofa 40 cm dan kichik bo'lganida korpuslar orasiga begona o't va o'simlik qoldiqlari tiqilib qolishi bilan izohlash mumkin. Demak, o'tkazilgan tahlillar natijalari bo'yicha ikki yarusli diskli plugning yuqorigi yarus korpusidan undan oldinda joylashgan pastki yarus korpusigacha bo'lgan bo'ylama masofasi 40 cm bo'lishi lozim ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtaqo'ziev A., Ishmuradov Sh.U., Abzalova M. Diskli plug // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2010. – №12. – B.29.
2. O'zDSt 3193:2017 “Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli”. – Toshkent, 2017. – 21 b.
3. O'z DST 3412:2019 “Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari”. – Toshkent, 2019. – 52 b.

PAXTACHILIK KULTIVATORI UCHUN YASSI KESUVCHI PANJANING PICHOQLARNING GORIZONTGA NISBATAN O'RNATILISH BURCHAGINI ASOSLASH

O.T. Mirzayev

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada paxtachilik kultivatorlari uchun taklif etilayotgan yassi kesuvchi panjaning konstruktiv va texnologik parametrlari tahlil qilingan. Xususan, panja pichoqlarining gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini asoslash masalasi nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlarning normal va tangensial tashkil etuvchilari, ishqalanish ko'effitsiyenti hamda tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari hisobga olingan holda matematik ifodalar orqali tahlil qilingan. Natijada tuproqni samarali kesish, begona o'tlarni yo'qotish va tuproqning nam qatlamini buzmasdan yumshatishni ta'minlaydigan optimal burchak qiymatlari aniqlangan. Ilmiy tahlillar asosida sug'orishdan keyingi zichlashgan tuproq sharoitida yassi kesuvchi panja qanotlarining gorizontga nisbatan ko'tarilish burchagi 12° - 20° oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: paxtachilik kultivatori, yassi kesuvchi panja, pichoq burchagi, qator oralariga ishlov berish, tuproqni yumshatish, begona o'tlarni kesish, ishqalanish burchagi, normal va tangensial kuchlar, agrotehnik parametrlar, kultivatsiya.

ОБОСНОВАНИЕ УГЛА УСТАНОВКИ НОЖЕЙ ПЛОСКОРЕЖУЩЕЙ ЛАПЫ ХЛОПКОВОГО КУЛЬТИВАТОРА ОТНОСИТЕЛЬНО ГОРИЗОНТА

O.T. Мирзаев

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В данной статье проведён анализ конструктивных и технологических параметров предлагаемой плоскорежущей лапы для хлопководческих культиваторов. В частности, теоретически рассмотрен вопрос обоснования угла установки ножей лапы относительно горизонтальной плоскости. В исследовании с использованием математических выражений проанализированы нормальная и тангенциальная составляющие сил, действующих на нож, коэффициент трения, а также физико-механические свойства почвы. В результате определены оптимальные значения угла, обеспечивающие эффективное подрезание почвы, уничтожение сорных растений и рыхление почвы без нарушения её влажного слоя. На основе научного анализа установлено, что в условиях уплотнённой после орошения почвы целесообразно принимать угол подъёма крыльев плоскорежущей лапы относительно горизонта в пределах 12° - 20° .

Ключевые слова: хлопководческий культиватор, плоскорежущая лапа, угол ножа, междурядная обработка, рыхление почвы, подрезание сорняков, угол трения, нормальные и тангенциальные силы, агротехнические параметры, культивация.

SUBSTANTIATION OF THE INSTALLATION ANGLE OF FLAT-CUTTING BLADE KNIVES RELATIVE TO THE HORIZONTAL FOR A COTTON CULTIVATOR

O. Mirzayev

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

Abstract. This article analyzes the structural and technological parameters of a proposed flat-cutting sweep for cotton cultivators. In particular, the problem of substantiating the installation angle of the sweep blades relative to the horizontal plane is considered from a theoretical perspective. The study analyzes, using mathematical expressions, the normal and tangential components of the forces acting on the blade, the coefficient of friction, and the physical and mechanical properties of the soil. As a result, the optimal angle values that ensure effective soil cutting, weed control, and soil loosening without disturbing the moist soil layer have been determined. Based on scientific analysis, it has been substantiated that under conditions of compacted soil after irrigation, the lift angle of the flat-cutting sweep wings relative to the horizontal should be within the range of 12°–20°.

Keywords: cotton cultivator, flat-cutting sweep, blade angle, inter-row cultivation, soil loosening, weed cutting, friction angle, normal and tangential forces, agrotechnical parameters, cultivation.

Kirish. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda agrotexnik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, paxtachilik sohasida tuproqqa ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish va qator oralariga ishlov beruvchi mashinalarning ish organlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida paxta strategik ekin turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda har yili o'rtacha 1,0-1,2 mln gektar maydonda g'o'za yetishtiriladi va paxtachilik agrosanoat majmuasining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, paxta hosildorligini oshirish va uni barqaror ta'minlashda qator oralariga ishlov berish ishlari muhim agrotexnik tadbirlardan biri bo'lib, u tuproqning agrofizik holatini yaxshilash, namlikni saqlash, begona o'tlarni yo'qotish hamda o'simlik ildiz tizimining rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi [1,2].

G'o'za qator oralariga o'z vaqtida va sifatli ishlov berilmasa, tuproqdagi namlikning bug'lanishi kuchayadi, tuproq zichlashib ketadi, begona o'tlar ko'payishi natijasida ekinning o'sishi sekinlashadi va hosildorlik 6-10 s/ga gacha kamayishi mumkin [3]. Shu bois paxtachilikda qator oralariga ishlov berishni samarali tashkil etish va bu jarayonda qo'llaniladigan kultivatorlarning ish organlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Qator oralariga ishlov berishda kultivator panjalari tuproq qatlamini kesish, yumshatish va begona o'tlarni bartaraf etish vazifalarini bajaradi. Biroq amalda qo'llanilayotgan ayrim ish organlari tuproqni samarali yumshatmasligi, ish jarayonida tortish qarshiligining ortishi va energiya sarfining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu esa agregatning ish unumdorligiga va umumiy agrotexnik samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi [4].

Shu nuqtai nazardan, paxtachilik kultivatorlari uchun yassi kesuvchi panjaning konstruktiv parametrlarini, ayniqsa pichoqlarning gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini nazariy va eksperimental jihatdan asoslash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pichoq burchagining optimal qiymatini tanlash tuproqni samarali kesish, begona o'tlarni bartaraf etish, tuproq qatlamining namligini saqlash va agregatning tortish qarshiligini kamaytirish imkonini beradi. Shuning uchun

yassi kesuvchi panjaning geometrik parametrlarini asoslash paxtachilik kultivatorlarining texnologik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.


Metod. Tadqiqotda nazariy tahlil va analitik hisoblash usullaridan foydalanildi. Yassi kesuvchi panja pichoqlarining gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini asoslashda tuproq bilan ish organining o'zaro ta'siri nazariy mexanika hamda qishloq xo'jaligi mashinalari nazariyasi asosida ko'rib chiqildi. Pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlar normal va tangensial tashkil etuvchilarga ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi matematik ifodalar orqali baholandi. Hisob-kitoblarda tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari hamda ishqalanish koeffitsiyenti inobatga olindi. Olingan natijalar ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bilan solishtirilib, yassi kesuvchi panjaning optimal konstruktiv parametrlari aniqlandi.

Asosiy qism. Sug'orish suvlaridan samarali foydalanish, g'o'zaning yaxshi o'sib rivojlanishida qator oralariga ishlov berishning ahamiyati kattadir. Chunki, qator orasiga ishlov berilganda tuproqning suv-fizik, mikrobiologik xususiyatlari, havo almashinuvi va ozuqa tartibi yaxshilanadi, begona o'tlar yo'qotiladi. G'o'za qator oralariga ishlov berish tuproq xususiyatlari, joyning relefi, suv bilan tahminlanganini inobatga olib o'tkaziladi va uning chuqurligi, ishlovlar soni hamda muddati belgilanadi.

Qator orasiga ishlov berish o'z muddatida va sifatli bajarilmasa, tuproqdagi namlikni yo'qotilishiga olib keladi, o'simlik ildizi shikastlanadi, o'sish va rivojlanish jarayonlari sekinlashib 10-15 kunga kechikadi, o'suv davrlari uzayishiga sabab bo'ladi, hosildorlik 6-8 s/ga kamayadi [5].

Taklif qilinayotgan yassi kesuvchi panja V-simon shaklda bo'lib, turli vegetatsiya davrida g'o'za qator oralaridagi begona o'tlarni kesish, tuproqni yumshatish hamda sug'orish egatlarini ochish kabi texnologik operatsiyalarni bajaradi. Burchak α pichoqning gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini bildiradi va u tuproq qatlamini kesishda normal-tangensial kuchlarni optimal nisbatda shakllantirish, kesilgan begona o't va tuproq massasining tig' bo'ylab "sirpanib" chiqishini ta'minlash va pastki nam qatlamni yuzaga chiqarmasdan yumshatishni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi 1-rasmda keng qamrovli paxtachilik kultivatorlari uchun yassi kesuvchi panjaning sxemasi keltirilgan.



1 – ustun; 2 – pichoq; a – pichoq uzunligi; L – stoyka balandligi; B – qamrash kengligi; b – pichoq kengligi; γ – pichoqlarning ochilish burchagi; α – pichoqlarning gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi; β – pichoqning maydalash (uvalash) burchagi; h – pichoq uchining gorizontga nisbatan ko'tarilish balandligi.

1-rasm. Keng qamrovli paxtachilik kultivatori uchun taklif etilgan yassi kesuvchi panjaning konstruktiv sxemasi

Pichoqqa ta'sir etuvchi umumiy kuchni R deb olib, uni tangensial (tortish) va normal yo'nalishlarga ajratamiz:

$$R_x = R \cdot \cos(\alpha + \varphi), \quad R_y = R \cdot \sin(\alpha + \varphi), \quad (1)$$

bunda $\varphi = \arctan \mu$ – ishqalanish burchagi, grad;

μ – ishqalanish koeffitsiyenti.

Sirpanish sharti (massalar pichoq bo'ylab chiqishi uchun):

$$\alpha \geq \varphi + \Delta_\alpha, \quad (2)$$

Energetik optimallashtirishda tortishga sarflanadigan quvvat:

$$P = v \cdot R_x = v \cdot R \cdot \cos(\alpha + \varphi), \quad (3)$$

Biroq R ning o'zi α ga bog'liq; "qiya kesish" uchun klassik yaqinlashuv:

$$R(\alpha) = \frac{R_*}{\cos(\alpha - \varphi_i)}, \quad (4)$$

bunda R_* – asosiy qarshilik, N; φ_i – ichki ishqalanish burchagi, grad.

(2.3) va (2.4) ifodalarni qo'shsak:

$$P(\alpha) = v \cdot \frac{R_*}{\cos(\alpha - \varphi_i)} \cos(\alpha + \varphi), \quad (5)$$

Optimal burchak sharti quyidagicha:

$$\frac{dP}{d\alpha} = 0, \quad (6)$$

Natijada yassi kesuvchi panja qanotlarining gorizontga nisbatan ko'tarilish burchagi quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha \approx \varphi + \varphi_i, \quad (7)$$

[5] adabiyotga asosan sug'orishdan keyingi zichlashgan tuproqda $\varphi = 22^\circ \dots 28^\circ$ bo'lganda yassi kesuvchi panja qanotlarining gorizontga nisbatan ko'tarilish burchagi $12^\circ \dots 20^\circ$ oraliqda bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Xulosa

1. Olib borilgan nazariy tahlillar natijasida paxtachilik kultivatorlari uchun taklif etilayotgan yassi kesuvchi panja pichoqlarining gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi tuproq bilan o'zaro ta'sir jarayonida muhim konstruktiv parametr ekanligi aniqlandi.

2. Pichoq burchagining to'g'ri tanlanishi tuproqni samarali kesish, begona o'tlarni yo'qotish, tuproq qatlamining agrofizik holatini saqlash hamda kultivatsiya jarayonidagi energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

3. Nazariy hisob-kitoblar va adabiyotlar tahlili asosida sug'orishdan keyin zichlashgan tuproq sharoitida yassi kesuvchi panja qanotlarining gorizontga nisbatan ko'tarilish burchagi $12^\circ - 20^\circ$ diapazonda bo'lishi eng maqbul ekanligi aniqlandi. Bu qiymatlar paxta qator oralariga ishlov berishda texnologik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FAO (Food and Agriculture Organization). World Food and Agriculture – Statistical Yearbook 2023. Rome, FAO.
2. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi Cotton sown area statistics (data portal).
3. USDA Foreign Agricultural Service. Cotton and Products Annual – Uzbekistan. 2024.
4. B. R. Kurambayev, R. R. Khudaikuliyev, M.K.Normatov, A.A. Turgunov. Modeling of Transverse Vibrations of a Cotton Cultivator AIP Conference Proceedings 2637, 060011 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0119262>
5. Синеоков Г.Н., Панов И.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. – Москва: Машиностроение, 1977. – 328 с.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ZANGLASHGA MOYIL MINTAQALAR

Sh.A. Shoobidov, Q.Q. Mirzayev, U.M. Mamasobirov, D.M. Mamurjonov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotasiya. Maqolada O'zbekiston hududining zanglash jarayonlari bo'yicha mintaqalar kesimida ma'lumotlar keltirilgan. Hududlarning zanglashga moyilligi bo'yicha mintaqalarga bo'linishi metall mahsulotlar, qishloq xo'jalik texnikasi, avtomobillar va boshqa vositalarning umrboqiyiligini oshirishda, ekologik vaziyatni hisobga olishda va yaxshilashda, iqtisodiy jihatdan esa sarf-xarajatlarni kamaytirish va oldindan chamalash imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga texnikalarni mavsumiy saqlashda moylash va saqlash materiallarini ratsional tanlashga zamin tayyorlaydi.

Kalit so'zlar. Zanglash, mintaq, suvning bug'lanishi, nisbiy namlik, changlanganlik, sho'rlanganlik, quyosh radiatsiyasi, kimyoviy faollashuv, zanglashga moyillik, metall mahsulotlar, qishloq xo'jalik texnikasi, avtomobillar, ekologik vaziyat, moylash va saqlash materiallari, gudron, ko'pfunksiyali moylar, umrboqiylik va saqlanuvchanlik mezonlari.

РЕГИОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ПОДВЕРЖЕННЫЕ КОРРОЗИИ

Ш.А. Шаабидов, К.К. Мирзаев, У.М. Мамасобиров, Д.М. Мамуржонов

Ташкентский государственный технический университет имени Ислам Каримова

Аннотация. В статье представлены сведения о процессах коррозии на территории Узбекистана в разрезе регионов. Разделение территорий на регионы по степени их склонности к коррозии способствует увеличению срока службы металлических изделий, сельскохозяйственной техники, автомобилей и других средств, а также позволяет учитывать и улучшать экологическую ситуацию. С экономической точки зрения это дает возможность снижать затраты и осуществлять их предварительное прогнозирование. Кроме того, это создает основу для рационального выбора смазочных и консервационных материалов при сезонном хранении техники.

Ключевые слова: коррозия, регион, испарение воды, относительная влажность, запыленность, засоленность, солнечная радиация, химическая активизация, склонность к коррозии, металлические изделия, сельскохозяйственная техника, автомобили, экологическая ситуация, смазочные и консервационные материалы, gudron, многофункциональные масла, критерии долговечности и сохраняемости.

CORROSION-PRONE REGIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sh.A. Shaabidov, K.K. Mirzaev, U.M. Mamasobirov, D.M. Mamurjonov

Tashkent State Technical university named after Islam Karimov

Annotation. The article presents information on the corrosion processes in the territory of Uzbekistan by regional divisions. The classification of areas according to their susceptibility to corrosion helps increase the service life of metal products, agricultural machinery, automobiles, and other equipment, while also taking into account and improving environmental conditions. From an economic perspective, it contributes to reducing costs and enabling better forecasting of expenditures. At the same time, it provides a basis for the rational selection of lubricants and preservation materials for seasonal storage of machinery.

Keywords: corrosion, region, water evaporation, relative humidity, dustiness, salinity, solar radiation, chemical activation, corrosion susceptibility, metal products, agricultural machinery, automobiles, environmental conditions, lubricants and preservation materials, tar, multifunctional oils, durability and preservation criteria.

Kirish. Markaziy Osiyo hududi quruq, issiq mintaqada joylashgan bo'lib, havo haroratining keskin tebranishi, kichik nisbiy namligi, kuchli shamoli va changli bo'roni, quyosh radiatsiyasining miqdori bilan tavsiflanadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida tabiiy mintaqalar harorat va yog'in miqdoriga bog'liq ravishda shimoldan janubga o'zgarsa, O'zbekistonda esa g'arbdan sharqqa – g'arbda joylashgan tekisliklardan sharqda joylashgan tog'lik tumanlarga tomon o'zgaradi. Shu xususiyat asosan tuproqning joylanishi, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalishini belgilaydi. Cho'l mintaqasida yog'in miqdori yiliga o'rtacha 100-200 mm. Shuning uchun bunday tumanlarda qo'shimcha sug'orish orqaligina qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish mumkin. Cho'l mintaqalaridagi sug'orma dehqonchilik changning kimyoviy faolligi va haroratning kundalik yuqori tebranishi bilan farqlanadi. Mualliflarning ko'rsatishicha [1], changning bunday kimyoviy faolligi uning tarkibidagi suvda eriydigan tuzlar (40 % gacha) va havoning yuqori changlanganligi oqibatidir ($8-9 \text{ g/m}^3$). Ko'pgina qishloq xo'jalik texnikasi detal va uzellari ishqalanish juftliklariga havodagi suvning bug'lanishi tufayli o'tirib, bu chang aralashmasi tarkibidagi tuzli tashkil etuvchilar o'ta kimyoviy faollanib, metall sirtqi qatlamlarining zanglanishiga olib keladi. Havo tarkibidagi suvning bug'lanishi issiq – quruq mintaqada haroratning kundalik o'zgarishidagi katta farq tufaylidir [2, 3, 5, 6]. O'rta Osiyoning barcha hududi zanglanishga eng xavfsiz mintaqaga kiritilgan. Bizning fikrimizcha, bu natijalar sanoat chiqindilari va havoning changlanganlik darajasining hamda sug'orma dehqonchilik sharoitlarining metall sirtiga ta'sirini e'tiborga olmaydi. Yerlarning meliorativ holati, yer osti suvlarining va yerning sho'rlanganligi, bulardan tashqari mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarining ko'plab ishlatilishi nafaqat ekologik barqarorlikni, balki qishloq xo'jalik texnikasini qo'llash sharoitlarining ham yomonlashuviga olib keladi. N.R.Xamrayevning ko'rsatishicha [4], umumiy hududning 20% dan oshiq suv zahirasi maxsus texnikaviy tadbirlarsiz sug'orishga, xo'jaliklarni suv bilan ta'minlashga, sanoat iste'moli uchun yaroqsizdir. Azot, fosfor, kaliy kabi unsurlarning mineral o'g'itlar sifatida ko'p miqdorda ishlatilishi tuproqning ma'lum sharoitlarda kimyoviy faollashuviga olib keladi. Tuproq – iqlim sharoitlariga Orol dengizidagi ahvol ham katta ta'sir ko'rsatadi. Orol dengizi havzasidan tarqalayotgan tuzlar aholi salomatligiga, metal konstruksiya va texnikaning zanglanishiga olib kelmoqda. Respublikada sanoat korxonalarining joylanishi ham bir tekis emas. Bu esa o'z navbatida yirik shahar va aholi punktlarida ekologiya buzilishiga sababchidir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga sanoatning kirib kelishi yalpi tus oldi. Kichik korxonalar, sexlar, katta – kichik korxonalar qurildi va ishga tushirilmoqda. Rivojlangan davlatlarning amaliyotidan ma'lumki, qayerda sanoat rivojlansa, shubhasiz o'sha yerda zanglanish holatlarining kuchayishi kuzatiladi.

Shunday qilib, sanoat korxonalarining joylanishi, qishloq xo'jalik texnikasining zanglash holati misolida viloyatlar tuproq – iqlim sharoitlarining xususiyatlarini o'rganish va o'tkazilgan tajribalar O'zbekiston Respublikasi hududini zanglashga moyillik bo'yicha quyidagi mintaqalarga bo'lish va o'simlik asosidagi gudronlar negizida yaratilgan ko'pfunksiyali moylarning me'yoriy tarkibi va ularni surtish qalinligini, qishloq xo'jalik texnikasining yupqa devorli detallarning umrboqiylik va saqlanuvchanlik mezonlarini aniqlash imkonini berdi. Quyidagi 1-jadvalda zanglanishga moyillik bo'yicha tavsiya etilayotgan mintaqalarning tasnifi va ba'zi ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Tavsiya etilayotgan mintaqalarning tasnifi

№	Ko'rsatkichlar nomi	Mintaqalar		
		I	II	III
1	Umumiy maydon, ming ga/%	243,29/7,26	1771,55/52,91	1333,5/39,8
2	Yog'in miqdori mm/yil	200...450	100...200	500...800
3	Havo harorati, °C	-25...42	-25...45	-28...42
4	Tuproq sharoiti	Sho'rxoq emas turli darajada tuzli	Sho'rxoq emas yerlardan o'ta tuzli yerlargacha	Sho'rlanmagan soz tuproqli
5	Yer osti suvlarining sathi	Turli chuqurliklarda	Yuzaki	Chuqurda
6	Shamolninu o'rtacha tezligi, m/s	1,2...1,7	2,0...4,8	2,0...8,0
7	Sanoat chiqtlari	Yuqori	O'rta	Sezilersiz
8	Havoning changlanganligi, g/m ³	5,0...6,0	4,0...5,0	3,0...4,0
9	Qishloq xo'jalik texnikasining yupqa devorli detallari misolida metallning zanglanish ko'rsatkichlari: -chuqurligi, mkm -zangdan yo'qotish, g/m ² -tezligi, g/m ² ·sutka -detalning ma'lum qalinligi (mm)da mustahkamlikning yo'qotilishi, % 2,0 1,0 0,8 0,5	50...57 200...250 0,5479-0,5754 17 32,5 46 50	45...48 150...160 0,411-0,4164 14 30 40 43	38...42 100...110 0,273-0,328 12 23 35 37
10	Moy surtish qalinligi, mkm	40...50	30...40	20...30

Zanglash jarayonlari metallarda o'z-o'zidan yuz beradigan yemirilish bo'lib, bu hol kimyoviy yoki elektrokimyoviy tavsifga egadir. Tashqi muhit bilan metall mahsulotlarning ta'sirlashishi oqibatida, ayniqsa, qishloq xo'jalik texnika vositalaridan foydalanish va mavsumiy saqlash

jarayonlarida ham zanglashdan ko'p zarar ko'riladi. Bu jarayonlarda QXTga zaharli kimyoviy unsurlar, atmosfera, organik va mineral o'g'itlar, tuproq katta ta'sir ko'rsatadi.

1-jadvalda berilgan mintaqalarga oid ma'lumotlarning muhtasari bayoni quyidagilardan iborat:

I-mintaqa – zanglash jarayonlariga yuqori moyillik xavfiga ega mintaqqa. Bu mintaqqa Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlari va ularga ustuvor shamol yo'nalishi bo'yicha yaqinroq joylashgan hamda sho'rxok yerli tumanlar kiritilgan (Oqqo'rg'on, Bo'ka, Bekobod, Chinoz, Yangiyo'l – umumiy maydoni 52,27 ming ga; Oqdaryo, Paxtachi, Narpay, Poyariq - 32,43 ming ga; Farg'ona viloyati - 72,66 ming ga; Andijon viloyati - 74,6 ming ga; Namangan viloyati - 11,33 ming ga).

II-mintaqa – zanglash xavfi o'rtacha mintaqqa. Bu mintaqqa Qoraqalpog'iston Respublikasi 394,96 ming ga; Xorazm viloyati 164,79 ming ga; Sirdaryo viloyati 260,08 ming ga; Jizzax viloyati 155,22 ming ga; Buxoro, Navoiy viloyatlarida 261,37 ming ga; Markaziy Farg'ona 166,77 ming ga; Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tekisliklar mos holda 271,13 va 97,03 ming ga.

III-mintaqa – past darajali zanglash jarayonlariga moyil mintaqqa. Bu mintaqqa Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 17,34 ming ga; Buxoro va Navoiy viloyatlari bo'yicha 7,13 ming ga; Xorazm viloyatidagi 62,41 ming ga; Sirdaryo viloyatida 15,42 ming ga; Jizzax viloyatining 50,48 ming ga tog'oldi yerlari; Toshkent viloyatida 203,25 ming ga; Surxondaryo viloyatida 162,11 ming ga; Qashqadaryo viloyatining 154,37 ming ga tog'oldi yerlari; Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida mos holda 221,24, 108,4 va 107,9 ming ga tog'oldi maydonlari hamda Samarqand viloyatining tog'oldi va tog'li hududlari qamrab olingan.

Xulosa. O'zbekiston hududining zanglash jarayonlari bo'yicha mintaqalarga bo'linishi metall mahsulotlar, qishloq xo'jalik texnikasi, avtomobillar va boshqa vositalarning umrboqiyiligini oshirishda, ekologik vaziyatni hisobga olishda va yaxshilashda, iqtisodiy jihatdan esa sarf-xarajatlarni kamaytirish va oldindan chamalash imkoniyatlarini yaratadi.

Shu bilan birga texnikalarni mavsumiy saqlashda moylash va saqlash materiallarini ratsional tanlashga zamin tayyorlaydi. Hozirgi paytda iqlimiy o'zgarishlarning aniq sezilayotganligi, ekologik barqarorlikning kun sayin susayotganligi, ekin maydonlarining degradatsiyaga uchrayotganligi, suv zahiralarning kamayib va tuzlanib borish jarayonlari kabilar albatta hayotimizda, qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishida e'tiborga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эфендиев А.М., Авкиякулов Н.Х., Абдулгасис У.А. Промежуточное техобслуживание тракторов в условиях сухого жаркого климата с засоленными почвами // Механизация хлопководства. Н7.1990. С.19.
2. Икрамов У.А., Сабликов М.Н. Основы эксплуатации и ремонта тракторов. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 240 с.
3. Шаабидов Ш.А. Свойства полифункциональных смазок на основе гудронов и противокоррозионная защита сельскохозяйственной техники. Тошкент: ТашДТУ, 1994. 136 с.
4. Ҳамраев Н.П. Проблемы оздоровления гидроэкологической обстановки и водообеспечение социально – экономического развития Узбекистана // Проблемы механики. 1993. Н4. С.31 – 34.

5. Шаабидов Ш.А. Технологические основы повышение сохранности СХТ с применением полифункциональных смазок на основе гудронов растительного происхождения. Ташкент. 1998. 445 с.
6. Шаабидов Ш.А., Иргашев А., Мирзаев К.К. Повышение эксплуатационных свойств поверхностных слоев деталей машин. Монография. –Т.: ТашГТУ, 2012. - 176 с.

RESEARCH ON THE DEVELOPMENT OF AN ADEM-BASED SIMULATION MODEL FOR ORGANIC MANURE SPREADING

M. Sheraliev, Ya. Jumatov

National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

Abstract: This study examines the creation and adjustment of an ADEM (Advanced Discrete Element Method)-based simulation model for spreading organic manure. Unlike dry granular fertilizers or compost, organic manure has higher cohesion, irregular particle shapes, and varying moisture content[1]. These factors significantly impact how well it spreads.

In this research, cattle manure was placed manually on soil in a natural heap, replicating real-field conditions[2]. Researchers carefully measured its physical properties, including moisture content, particle size distribution, shape, bulk density, and particle density[3]. This information was used in the ADEM model. A specially designed device for spreading manure was used, and researchers assessed spreading performance at five different rotational speeds from 10 to 20 rad/s.

The device was rotated in various orientations to analyze how the design and direction of the spreader affected the distribution pattern[4]. For each setup, the amount of manure (kg/m^2) was recorded across a specific field section[5]. The simulation results were confirmed by comparing the virtual spreading pattern with actual deposition measurements, showing a strong link[6].

The results of this study indicate that the ADEM model can accurately predict how organic manure behaves during spreading. It can also help improve spreader design and operational settings to achieve better uniformity in the field and more efficient application[7].

Keywords: Organic manure, ADEM, Discrete element simulation, Fertilizer spreading, Spreader optimization, Rotational speed analysis.


Introduction: Organic manure plays an important role in sustainable agriculture by improving soil fertility and increasing crop productivity[7]. However, its uneven texture, stickiness, and varying moisture content make consistent and efficient field application challenging[8]. Traditional fertilizer spreaders are typically made for dry granular materials and do not work well for the mechanical handling of organic manure[9].

To solve this problem, this study develops a simulation model based on the Advanced Discrete Element Method (ADEM), specifically designed for manure spreading conditions. The manure used in the study was collected directly and formed into natural heaps on soil to mimic realistic field loading[10]. The physical properties of the manure, including particle size, moisture, morphology, and densities, were measured to accurately set up the particle interaction parameters for the model.

A custom-built spreading device was created, and experimental trials were performed at five rotational speeds—10, 12.5, 15, 17.5, and 20 rad/s. The spreader was operated in different directions and configurations, while the distribution of manure per square meter was recorded using surface analysis techniques. These results helped identify the best operational setup for uniform manure spreading

By combining empirical data with ADEM simulation, the research offers useful insights for improving organic manure application systems and supports the growth of precision spreading technologies.

Materials and Methods. In this study, we developed a realistic model for spreading cattle manure using EDEM simulation software. We prepared the manure in five different particle size categories to mimic real field conditions. These particles were added to the EDEM environment as a custom bulk material, including properties like density, cohesion, static friction, rolling friction, and restitution coefficient. We also modeled the real-world shape of the manure pile to ensure it behaved naturally when released (see Picture 1). This base model was the starting point for all simulation experiments.



Picture 1. Manure particle modeling and realistic bulk shape in EDEM

To replicate the physical act of spreading, a virtual spreading mechanism was created using SolidWorks. The spreader model was then imported into EDEM, positioned **5 cm above the ground surface**, and used to release manure under controlled conditions. The simulation accounted for gravity, particle interaction forces, and spreader rotation, providing a physically realistic representation of field spreading dynamics.

Four distinct spreading configurations were tested to evaluate their impact on distribution uniformity:

1. Both spreaders facing forward (same direction)
2. One spreader angled at 45°
3. Both spreaders directed outward
4. Both spreaders directed inward

These configurations were implemented virtually, and each was tested for its ability to distribute manure evenly across the target area. After running all four configurations, the outward-facing spreader setup (Configuration 3) was found to deliver the most balanced spread pattern, which was selected for further analysis (see Picture 2).



Picture 2. Simulation setup showing spreader placement and configuration

Following the configuration selection, the optimized system was tested at five different rotational speeds: 10, 12.5, 15, 17.5, and 20 rad/s. For each speed, the amount of manure deposited

(kg/m²) at 1-meter intervals along the spreading direction was recorded. These measurements were used to evaluate the uniformity and reach of the spread under different operating conditions. The data were visualized using surface plots and compared across all speed levels to determine the optimal operating speed.

Results and Discussion.

Evaluation of Different Spreading Configurations.

Four distinct manure spreading configurations were simulated to evaluate their effectiveness in achieving a uniform distribution pattern. These configurations included:

1. A picture Both spreaders facing forward (same direction)
2. B picture Both spreaders directed outward
3. C picture One spreader angled at 45
4. D picture Both spreaders directed inward

Each configuration was virtually implemented by placing the spreader model, created in SolidWorks, between the two rear wheels of a virtual tractor. The positioning was aligned to reflect a realistic field condition based on typical tractor axle width.

Simulation results showed that the third configuration - both spreaders directed outward - produced the most uniform lateral and longitudinal distribution of manure. Other configurations either concentrated material too heavily near the center or created uneven patterns at the edges. As a result, the outward-facing configuration was selected as the optimal setup for all subsequent experiments.




Figure 3. Comparison of simulation results for four different spreading configurations

Optimal Speed Selection Based on Quantitative Analysis. To determine the most effective rotational speed for uniform manure distribution, a detailed quantitative analysis was conducted. The manure mass per square meter was recorded at six distance intervals (from 0.5 to 3 meters) for each of the five rotational speeds (10, 12.5, 15, 17.5, and 20 rad/s).

The results are summarized in the following table:

Distance (m)	10 rad/s	12.5 rad/s	15 rad/s	17.5 rad/s	20 rad/s
0.5	126.1	120.3	118.6	112.5	105.3
1.0	113.2	108.7	104.8	98.3	94.3
1.5	101.3	97.3	92.6	87.9	82.7
2.0	87.5	84.3	79.5	74.3	68.7
2.5	74.7	70.6	65.3	60.2	55.3
3.0	60.3	57.3	52.1	47.3	42.5


An ideal distribution pattern should show a gradual and consistent decrease in manure amount with increasing distance, indicating even coverage across the field.

Among all tested speeds, 15 rad/s demonstrated the most balanced distribution pattern:

- 118.6 → 104.8 → 92.6 → 79.5 → 65.3 → 52.1
- This shows a steady decline, indicating an optimal combination of throw distance and evenness.

In contrast:

- 10 rad/s and 12.5 rad/s exhibited high accumulation near the spreader and steep drop-offs, suggesting poor outer coverage.
- 20 rad/s produced overly scattered patterns with insufficient central coverage.



Conclusion. This study presented the initial development of an ADEM-based simulation model designed to analyze and optimize the mechanical spreading of fresh cattle manure. By incorporating realistic material properties - such as particle size distribution, moisture content, and bulk density - the model effectively captured the dynamic behavior of manure particles under various mechanical configurations.

Four different spreader orientations and five rotational speeds (10–20 rad/s) were tested in a controlled virtual environment. The simulation results revealed that a configuration where both spreaders are directed outward, operating at a rotational speed of 15 rad/s, provided the most uniform and efficient distribution pattern. This setup minimized central accumulation and reduced edge scattering, indicating an optimal balance between spreading range and coverage consistency.

These findings underscore the potential of particle-scale simulation tools like ADEM for evaluating design parameters and operational settings prior to physical prototyping. The use of such models can significantly reduce development costs, shorten design cycles, and improve the performance of manure application technologies.

Future work will focus on validating the simulation outcomes through physical experiments and refining the model by including additional variables such as terrain slope, environmental conditions, and machine-soil interaction. Ultimately, this approach supports the development of precision manure application systems that align with the goals of sustainable and efficient agriculture.

References

1. Zhou, L., R.K. Agarwal, and L.E. Zhou, *Discrete Element Method for Multiphase Flows with Biogenic Particles*. 2024: Springer.
2. Rodriguez-Campos, J., et al., *Bioremediation of soil contaminated by hydrocarbons with the combination of three technologies: bioaugmentation, phytoremediation, and vermiremediation*. Journal of soils and sediments, 2019. 19(4): p. 1981-1994.
3. Arya, L.M. and J.F. Paris, *A physicoempirical model to predict the soil moisture characteristic from particle-size distribution and bulk density data*. Soil Science Society of America Journal, 1981. 45(6): p. 1023-1030.
4. Dun, G., et al., *Optimal design and experiment of Corn-Overlapped strip fertilizer spreader*. Applied Sciences, 2023. 13(4): p. 2559.
5. Yinyan, S., et al., *Design and experiment of variable-rate fertilizer spreader with centrifugal distribution cover for rice paddy surface fertilization*. Nongye Jixie Xuebao/Transactions of the Chinese Society of Agricultural Machinery, 2018. 49(3).
6. Hong, Z.-H., et al., *Atomistic simulations of morphology and spreading behavior of cluster beam deposition*. Computational Materials Science, 2010. 49(4): p. 850-857.
7. Lawrence, H., I. Yule, and M. Coetzee, *Development of an image-processing method to assess spreader performance*. Transactions of the ASABE, 2007. 50(2): p. 397-407.
8. Nik Abd Rahman, N.F.N., et al., *Revolutionizing Spray Drying: An In-Depth analysis of surface stickiness trends and the role of physicochemical innovations in boosting productivity*. Journal of Food Quality, 2024. 2024(1): p. 8929464.
9. Moure Abelenda, A. and C.V. Amaechi, *Manufacturing of a granular fertilizer based on organic slurry and hardening agent*. Inventions, 2022. 7(1): p. 26.
10. Sepehrnia, N., et al., *Bacterial mobilization and transport through manure enriched soils: experiment and modeling*. Journal of Environmental Management, 2017. 201: p. 388-396.

DIFFERENSIAL MIKRO-PURKASHGA TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN AGROROBOTNING LOYIHAVIY HISOBI VA SAMARADORLIGI TAHLILI

Sh.N. Barlibayev, S.G'. Suyunov

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida o‘simliklarni himoya qilish jarayonida resurslarning ortiqcha sarfi va kimyoviy moddalarning ekologiyaga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida differensial mikro-purkash texnologiyasiga asoslangan aqlli agrorobot konstruksiyasi loyihalashtirilishi yoritilgan. Maqolada robotning asosiy dizayni, mexanizmlari va purkash tizimi tavsiflangan hamda uning samaradorligi va ekologik xavfsizligi modellashtirish orqali baholangan.

Tayanch so‘zlar: differensial mikro-purkash, aqlli agrorobotlar, modellashtirish, purkash tizimi, batareya sig‘imi, suyuqlik sarfi.

ПРОЕКТНЫЙ РАСЧЕТ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ АГРОРОБОТА НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО МИКРООПРЫСКИВАНИЯ

Ш.Н. Барлибаев, С.Г. Суюнов

Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт инженеров
иригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация. В данной статье освещается проектирование интеллектуальной конструкции сельскохозяйственного робота на основе технологии дифференциального микроопрыскивания с целью снижения чрезмерного расхода ресурсов и негативного воздействия химических веществ на экологию в процессе защиты растений в дехканских и приусадебных хозяйствах. В статье описывается основная конструкция робота, механизмы и система опрыскивания, а также оценивается его эффективность и экологическая безопасность посредством моделирования.

Ключевые слова: дифференциальное микроопрыскивание, интеллектуальной сельскохозяйственной роботы, моделирование, система опрыскивания, емкость аккумулятора, расход жидкости.

DESIGN CALCULATION AND ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF THE AGRO- ROBOT BASED ON DIFFERENTIAL MICRO-INJECTION TECHNOLOGY

Sh. Barlibaev, S. Suyunov

“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”
National Research University

Abstract. This article highlights the design of a smart agro-robot based on differential micropropagation technology to reduce excessive resource consumption and the negative impact of chemicals on the environment in the process of plant protection in dehkan and household farms. The article describes the basic design, mechanisms, and spraying system of the robot and assesses its efficiency and environmental safety through modeling.


Keywords: differential micro-spraying, intelligent agrobots, modeling, spraying system, battery capacity, liquid consumption.

Kirish. Hozirgi kunda kichik va o'rta maydonli dehqon va tomorqa xo'jaliklarida o'simliklarni himoya qilish va sug'orish jarayonlari ko'pincha an'anaviy usullar orqali amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat ko'proq vaqt va mehnat talab qiladi, balki resurslarning ortiqcha sarfi hamda kimyoviy moddalar bilan bog'liq ekologik xavflarni kuchaytiradi. Shu sababli, differensial mikro-purkash texnologiyasiga asoslangan aqlli agrorobotlarni loyihalash va modellashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada robotning dizayni, modellashtirish bosqichi va asosiy mexanizmlari yoritilgan [1,2].

Ushbu aqlli agrorobot differensial mikro-purkash texnologiyasiga asoslangan bo'lib, u quyidagi prinsip asosida ishlaydi: agrorobot dala bo'ylab harakatlana boshlaganda sensorlar o'simlik holatini aniqlaydi, tizim ma'lumotlarni tahlil qiladi, zararlangan o'simlik aniqlanadi, faqat zararlangan hududga preparat purkaladi [3].

Natijada kimyoviy preparatlarni 40% gacha tejash orqali dorilash samaradorligi oshirilib, ularning tuproq, suv va insonga salbiy ta'sirini kamaytirishga erishiladi.

Materiallar va uslublar. Agrorobotning asosiy vazifasi — o'simliklarni kasalliklardan himoya qilishda differensial mikro-purkash texnologiyasidan foydalangan holda energiya va resurs sarfini kamaytirish hamda kimyoviy vositalarning ekologiya va inson salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirishdan iborat. Agrorobot platformasi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan (Rasmga qaralsin):



1-forsunka; 2-mikrokontroller; 3-akkumlyatorlar; 4- cho'tkasiz motorli g'ildiraklar; 5-amortizator mexanizmi; 6-sensorlar va ultraspektrial kamera; 7-nasos va filtrlar; 8-dori solish baki; 9-forsunka shtangasi.

1-rasm. Differensial mikro-purkash texnologiyasiga asoslangan agrorobot platformasining konstruksiv tuzilishi

Platforma va g'ildirak tizimi – robotning maydonda barqaror harakatlanishini ta'minlaydi. G'ildiraklar o'lchami va vilkalar mexanizmi burilish radiusi va tezlikni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Purkash tizimi – ikki tomonlama forsunka va shtangalar yordamida differensial mikro-purkashni amalga oshiradi, bu esa kimyoviy moddalarni samarali va ekologik xavfsiz tarzda taqsimlash imkonini beradi.

Boshqaruv va sensor tizimi – robot masofadan yoki oldindan dasturlashtirilgan rejimda ishlashi mumkin. Sensorlar o'simliklar orasidagi masofani aniqlab, purkashni avtomatik ravishda sozlaydi.

Energiya manbai – elektr motorlar va qayta zaryadlanuvchi batareyalar orqali ishlaydi, energiya samaradorligi ushbu konstruksiyaning muhim jihati hisoblanadi.

Modellashtirish va loyihaviy hisoblar. Loyihaviy bosqichda robotning barcha mexanizmlari va tizimlari kompyuter modellashtirish dasturlari yordamida tekshiriladi. Bu jarayonda quyidagilar hisobga olingan:

G'ildirak va platforma barqarorligi – maydondagi burilish va muvozanatni ta'minlash;

Purkash tizimi oqimi – suyuqlik bosimi, forsunka o'lchamlari va dozalanish;

Motor quvvati va energiya sarfi – batareyalar ishlash muddati va robotning uzoq masofalarda samarali harakati.

Shu orqali robotning mexanik va elektr tizimlari o'zaro moslashtiriladi va loyihaviy yechimlarning samaradorligi baholanadi.

1. Purkash tizimi hisob-kitobi. Gektariga suyuqlik sarfi kichik xo'jaliklar uchun o'rtacha 150 l/ga deb qabul qilamiz. Shunda umumiy suyuqlik sarfi:

$$Q = \frac{V \cdot B \cdot q}{600}; \quad (1)$$

Platformaning texnik xususiyatlaridan va (1) ifodadan kelib chiqib, $Q = 1,2 \text{ l/min}$ ekanligini aniqlaymiz.

(1) Ifodadan kelib chiqib bitta forsunka uchun suyuqlik sarfini aniqlaymiz:

$$Q = \frac{1,2}{4} = 0,3 \text{ l/min} \quad (2)$$

2. Agrorobotning suyuqlik baki bir martalik to'ldirilishida uning uzluksiz ishlash davomiyligi bak hajmi va purkash sarfi asosida aniqlanadi:

20 litr bak bilan ishlash vaqti:

$$t = \frac{20}{1,2} \approx 16,7 \text{ minut} \quad (3)$$

Demak, agrorobot bir to'ldirilishda ~16–17 minut uzluksiz ishlashi mumkin.

3. Harakat tizimi va tortish kuchi

$$F = m \cdot g \cdot f \quad (4)$$

bunda f - harakatga qarshilik (ishqalanish) koeffitsienti bo'lib, qishloq xo'jaligi sharoiti uchun $f = 0,05$ deb olindi.

(4) ifodani yechish orqali agrorobotning harakatga qarshilik kuchi 29,4 N ni tashkil etdi.

4. Elektrodvigatel quvvati

$$P = \frac{F \cdot v}{\eta}; \quad (5)$$

η — foydali ish koeffitsienti (0.7–0.85), $\eta = 0,75$ deb qabul qilamiz.

$$P = \frac{29,4 \cdot 1,11}{0,75} \approx 43,5 \text{ W}$$

Bu holatda yerning notekisligi (yuklama 20–30%) va ishga tushish va tezlanish (20%) ni hisobga olib, yakuniy real quvvat $P_{real} = 43,5 \times 1,4 \approx 61$ W ga tengligi kelib chiqdi.

Agrorobot harakatlanishi uchun zarur bo'lgan dvigatel quvvati harakatga qarshilik kuchi, tezlik va tizim samaradorligini hisobga olgan holda aniqlandi [4]. Hisob-kitoblarga ko'ra, nazariy quvvat 43,5 W ni tashkil etadi. Biroq dala sharoitidagi qo'shimcha yuklamalar va tizim yo'qotishlarini inobatga olib, dvigatel quvvati 60–80 W diapazonda tanlanishi maqsadga muvofiq deb topildi.

5. Energiya sarfi

$$E = P \cdot t \quad (6)$$

4 soat uchun:

$$E = 80 \cdot 4 = 320 \text{ Wh}$$

6 soat uchun:

$$E = 80 \cdot 6 = 480 \text{ Wh}$$

6. Batareya sig'imi

$$C = \frac{E}{U} \quad (7)$$

4 soat uchun:

$$C = \frac{320}{12} \approx 26,7 \text{ Ah}$$

6 soat uchun:

$$C = \frac{480}{12} \approx 40 \text{ Ah}$$

Agrorobotning dastlabki talablariga ko'ra uning uzluksiz ishlash davomiyligi 4–6 soat etib qabul qilindi. Hisob-kitoblar natijasida tizimning umumiy energiya sarfi 320–480 Wh ni tashkil etishi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, 12 V kuchlanishli akkumulyator uchun zarur sig'im 27–40 Ah diapazonda baholandi. Tizimdagi yo'qotishlar va zaxira energiyani hisobga olib, amaliy jihatdan 30–50 Ah sig'imli akkumulyatordan foydalanish maqsadga muvofiq.

Natijalar va ularning tahlili. Agrorobotning loyihaviy hisob-kitoblari asosida uning purkash tizimi, harakat tizimi va energiya sarfi baholandi. Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, suyuqlik sarfi umumiy holda 1,2 l/min, bitta forsunka uchun esa 0,3 l/min ga teng bo'lib, 20 litr hajmdagi bak bilan uzluksiz ishlash vaqti taxminan 16-17 minutni tashkil qiladi. Ushbu natija differensial mikro-purkash texnologiyasining samarali ishlashini va kimyoviy moddalar isrofini kamaytirishini ko'rsatadi.

Harakat tizimi bo'yicha hisob-kitoblar agrorobotning harakatga qarshilik kuchi 29,4 N ekanligini ko'rsatdi. Dvigatel quvvati real sharoitdagi yo'qotishlar va dala sharoitini inobatga olgan holda 60–80 W diapazonda tanlanishi zarurligi aniqlandi. Bu qiymatlar agrorobotning uzluksiz va barqaror harakatlanishini ta'minlaydi.

Energiya tizimi uchun hisob-kitoblar robotning 4–6 soat davomida ishlash talabini qondiradi. Shunga mos holda 12 V kuchlanishli akkumulyator sig'imi 30–50 Ah oralig'ida bo'lishi tavsiya etildi, bu robotning uzoq vaqt davomida ishlashini kafolatlaydi va tizim samaradorligini oshiradi.

Olingan natijalar agrorobotning barcha asosiy parametrlarini ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Hisob-kitoblar va tahlillar agrorobotning samarali va ekologik xavfsiz ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi, shuningdek maqola boshida qo'yilgan vazifalar bilan mantiqan bog'langan.

Xulosa. Ushbu maqolada differensial mikro-purkashga asoslangan agrorobot loyihaviy hisob-kitoblar yordamida tahlil qilindi. Izlanishda robotning purkash tizimi, harakat tizimi va energiya sarfi baholandi. Loyihaviy hisoblashlardan ko'rinadiki, purkash tizimi samaradorligi va suyuqlik sarfi mikro-purkash texnologiyasining talablariga mos keladi, motor quvvati va energiya tizimi robotning

4-6 soat uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Taklif etilgan yechimlar agrorobotning ekologik xavfsiz ishlashini va maydonlarda samarali qo'llanishini ta'minlaydi hamda amaliyotda resurslarni tejash va ishlash samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshaboyev, O. & Rasulov S. (2025). *Popularizing the Use of Unmanned Aerial Vehicles in Agriculture in Uzbekistan*. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 45–52. - mamlakatda qishloq xo'jaligida UAV texnologiyalarini qo'llash va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.
2. Mamatqulov, M. & Najmiddinov, A. (2024). *Qishloq Xo'jaligida Avtomatlashtirilgan Texnologiyalarning Qo'llanishi*. Journal of New Century Innovations, 3(1), 12-19. - qishloq xo'jaligida avtomatlashtirish va robototexnika sohasidagi amaliyotlar va samaradorlik bo'yicha tahlil.
3. Bhovi, M., Gola, L., Rathod, A., Pawar, V. G., & Nishant. (2025). *Smart Pesticide Spraying Robot*. Journal of Scientific Research and Technology, 3(12), 1-4. - aqlli agrorobotlar va purkash tizimlarining ilmiy loyihasi va samaradorligi.
4. Liu, H., Du, Z., & X. (2024). *Development and Evaluation of an Intelligent Multivariable Spraying Robot for Orchards and Nurseries*. Computers and Electronics in Agriculture, 222, 109056. - orchard va nursery purkash robotining dizayni va tahlili.

NISHABLIKDAGI BOG'LARDA TUPROQNING SUV EROZIYASI XAVFIDAN HIMOYA QILADIGAN ISHCHI QISM ISHLAB CHIQUV

G.R. Murtazayeva¹, N.Q. Rajabov¹, N.Dj. Sharifova, N.I. Maxmatqulov³

¹«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti,

²Termiz davlat muhandislik va agrotehnologiyalar universiteti,

³Qarshi davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada, nishabli dalalarda joylashgan bog'larda suv eroziyasini oldini olish uchun bog' qator oralarida nishablikka perpendikulyar ravishda faqat bir tomonda o'rkach hosil qilib sug'orish ariqlari ochiladi. Ishlab chiqilgan ishchi qism va u bilan bajariladigan texnologik jarayon bo'yicha ishchi qismning o'ng yon tomoni bir vaqtda pichoq vazifasini ham bajaradi. U ishlov berish chuqurligi bo'yicha qirqib olinadigan palaxsani daraxtning himoya zonasidan ajratadi. Shuningdek harakati davomida o'simlik ildizlari va qoldiqlarini ham qirqishi nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: tuproq, korpus, tekis ishlov berish, burchak keskich, disksimon pichoq, yo'naltirgich.

РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ РАБОЧЕЙ ЧАСТИ ЗАЩИЩАЮЩЕЙ ОТ ВОДНОЙ ЭРОЗИИ ПОЧВЫ САДА УКЛОННОЙ ПОВЕРХНОСТИ

Г.Р. Муртазаева¹, Н.К. Ражабов¹, Н.Дж. Шарифова², Н.И. Махматкулов³

¹«Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» Национальный исследовательский университет,

²Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий,

³Каршинский государственный технический университет.

Аннотация. В данной статье приведены сведения, о проведенном анализе технологии рабочего процесса рабочей части защищающей от водной эрозии почвы сада расположенный на уклоне, а также водной эрозии почвы возникающие в интенсивных садах расположенные на наклонных полях и факторы приводящие ее, технологии обработки для защиты от водной эрозии почвы и оборудование, совместно с этим рекомендуемая новая конструкция приспособления открытия канавы для защиты от водной эрозии почвы сада на наклонных полях в соответствии требованиям времени и рабочих процессах.

Ключевые слова: почва, корпус, гладкая вспашка, углосним, дисковый нож, заплужник.

DEVELOPMENT OF A FUNCTIONAL COMPONENT PROTECTING SOIL IN SLOPING ORCHARDS FROM WATER EROSION

G. Murtazayeva¹, N. Rajabov¹, N. Sharifova², N. Maxmatqulov³

¹ National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

² Termez State University of Engineering and Agrotechnology,

³ Karshi state technical university.

Abstract. This article addresses the prevention of water erosion in orchards located on sloping fields. For this purpose, irrigation furrows are opened between the rows of trees, arranged perpendicular to the slope, with ridges formed only on one side. The developed working part and the technological process carried out with it ensure that the right side of the working body simultaneously functions as a blade. It separates the soil clod, cut according to the cultivation depth, from the tree's protection zone. In addition, during its operation, it is intended to cut plant roots and residues as well.

Key words: soil, body, smooth plowing, uglosnim, disc knife, plow plough.

Kirish: Jahonda tuproq unumdorligini saqlagan holda suv eroziyasiga moyilligi bo'lgan nishabli dalalarda qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish, bog' dorchilik va uzumchilikni tashkil etish va ulardan yuqori hosil olish uchun er maydonlariga ishlov berish uchun ilg'or texnologiyalari va zamonaviy texnika vositalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasida tuproqni eroziyaning barcha turlaridan himoya qilish, mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan nishabli dalalarda joylashgan bog' qator oralarida tuprog'iga ishlov beradigan texnika vositalarini takomillashtirish, ularning konstruktiv sxemalarini ishlab chiqib, ishchi qismlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarida resurstejamkorlikni ta'minlash, texnologik ish jarayonini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirish talab etmoqda.

Nishabli dalalarda joylashgan bog'larda suv eroziyasini oldini olish uchun bog' qator oralarida nishablikka perpendikulyar ravishda faqat bir tomonda o'rkach hosil qilib sug'orish ariqlari ochiladi. Nishablikda joylashgan bog'larda ochiladigan ariq shakli nishabli dalalarda suv ariqning o'q chizig'i bo'ylab harakatlanganda suv tuproqni yuvib ketmasliga lozim.


Tadqiqot metodologiyasi: Ramaga qiya ustunli yuqorigi va pastki yumshatkichlar, tayanch g'ildirak mahkam (qo'zg'almas) biriktirilgan. O'rkach hosil qiluvchi sferik diskning holati maxsus burovchi mexanizm orqali o'zgartiriladi. Yuqorigi ishchi qism 25 cm chuqurlikda, pastki ishchi qism esa 35 cm chuqurlikda tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradi, sferik disklar ishlov berilgan dala yuzasida yomg'ir suvlarni ushlaydigan va namni tuproqda saqlaydigan tuproq uyumilarni shakllantiradi. Ish jarayonida yumshatkichlar tuproqni yumshatadi, sferik disk esa tuproq uyumi hosil qiladi.

Tahlil va natijalar: Ariq ochgich tomonidan hosil qilingan ariq shakli va tuproq uyumining yoyilish sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Bu texnologiyani amaldagilaridan farqi shundaki, ariq ochishda chiqarilgan tuproq uyumini ma'lum bir kenglikda va qalinlikda yoyib ketadi.


Ushbu suv arig'ini ochish texnologiyasini amalda bajarish uchun ariq ochgich qurilmasi ishlab chiqildi.

Yaratilgan ariq ochgich qurilmasi uch ta qismdan iborat. Birinchi qismi sug'orish arig'ini belgilangan o'lchamlarda shakllantiradi, ikkinchi qismi esa suv arig'ini olishdan chiqqan tuproq uyumini belgilangan kenglikda va qalinlikda yoyib ketadi, uchinchi qismi esa ularni bir-biriga bog'lab turish uchun sharnirdan tashkil topgan.



h_2 – yoyilgan tuproq uyumining qalinligi; b_2 – yoyilgan tuproq uyumining kengligi. S_1 -ariqning ko'ndalang kesim yuzasi, S_2 –tuproq uyumining ko'ndalang kesim yuzasi.

1-rasm. Ariq ochgich tomonidan hosil qilingan ariq va tuproq uyumining yoyilish sxemasi



1-ariq ochgich, 2-tuproqni yoyib ketadigan qanot, 3-sharnir

2-rasm. Bog' qator oralarida trapetsiyasimon ariq ochgich sxemasi

Ushbu bog' qator oralarida trapetsiyasimon ariq ochgichdan nishablikda joylashgan bog'larda sug'orish ariqlarini ochish mumkin. Biroq, qor va yomg'ir yog'ishidan hosil bo'lgan suv oqimi har doim nishablikni enish tomoniga qarab harakatlanadi, natijada sug'orish arig'idan chiqarib ikki yon tomonga yoyilgan tuproqning bir tomonini suv oqimi yuvib ariq ichini to'ldiradi. Oqibatda suv oqimi ariqdan toshib chiqadi va tuproqning yuvilib ketishiga sabab bo'ladi.

Qurilmada o'ng va chap ishchi qismlarni transport holatdan ishchi va aksinchaga o'tkazish jarayonlari gidrotsilindr yordamida amalga oshiriladi.

Gidrotsilindrning o'lchamlarini e'tiborga olmasdan uni qurilmaga o'rnatishning imkoniyati bo'lmaydi.


Taklif etilayotgan qurilmaning o'lchamlari va vazni nisbatan kichik bo'lganligi sababli, gidrotsilindrni qurilmaga o'rnatish uchun, tanlanadigan tirsak va shtok uzunliklari orasidagi bog'lanish tahlil qilinishi lozim.

Dastlab taklif etilayotgan qurilmaning o'ng 5 va chap 6 balkalarini osma qurilmaning tik tortqisi 1 va ko'ndalang tortqisi 2 ning tutashgan markaziga o'rnatish sxemasini ishlab chiqish talab etiladi (3, a-rasmga qarang.).

Taklif etilayotgan qurilma o'rnatiladigan osma qurilma konstruksiyasining tik tortqisi 1 ga gidrotsilindrning silindrini o'rnatish 1 va shtok teshigi kiritiladigan sterjengacha bo'lgan m masofalar aniqlanishi lozim.

Qurilma qo'zg'almas osma qurilmaga nisbatan aylanma va qaytma harakatlanishi uchun, uning markaziga sharikli podshipnik kiydirilgan o'q qo'zg'almas o'rnatilishi lozim. Ushbu o'q atrofida taklif etilayotgan qurilma 90° ga aylanishi va qaytishi talab etiladi. Qurilmaning aylanma

harakatini 90° ga etganida to'xtatish uchun cheklagich 3 lar o'rnatildi.



1-osma qurilmaning tik tortqisi; 2-osma qurilmaning ko'ndalang tortqisi; 3-cheklagichlar; 4-shariqli podshipnik kiydirilgan o'q; 5,6-qurilmaning mos holda chap va o'ng balkalari; 7-sterjen
3-rasm. Gidrotilindrni qurilmaga o'rnatishni aniqlashga oid sxema

Sxemalar tahlili sterjen 7 ni balka 6 ning o'ziga o'rnatish, kutilgan natijani bermasligini ko'rsatdi. Shu sababli sterjenni albatta, *b*-rasmdagidek ma'lum bir *p* masofada o'rnatish lozim.

Balka 6 dagi sterjen 7 gacha bo'lgan *m* masofa tanlanadigan gidrotilindr o'lchamlariga ta'sir ko'rsatadi. Shunday o'lchamdagi gidrotilindr tanlanishi lozimki, uning silindri uzunligi quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim,


$$l_{\text{silindr}} \leq L - m \quad (1)$$

bunda *L* – osma qurilmaning markazidan tik tortqi 1 dagi silindr o'rnatiladigan sterjengacha bo'lgan masofa, *m*.

Gidrotilindr o'rnatilgan qurilmaning sxemasi 4-rasmda keltirilgan.

4-rasmdagi sxemaga ko'ra:

$\beta = 0$ bo'lganda



5, 6-o'ng va chap balkalar; 8, 9-o'ng va chap ishchi qismlar;
 10-gidrotilindr; 11-shtok

4-rasm. Gidrotilindr o'rnatilgan qurilmaning sxemasi

$$L = m + l_{\text{silindr}},$$

bo'lib, $l_{sh} = 0$ va $\beta > 0^\circ$ bo'lishi bilan

$$BK = AB - AK$$

$$1) AB = m \text{ va } AK = m \cos \omega t; \quad BK = m - m \cos \omega t = m(1 - \cos \omega t)$$

$$2) CK = CB + BK$$

$$\frac{CK}{l_{silindr} + l_{sh}} = \cos \beta$$

$$CK = (l_{silindr} + l_{sh}) \cos \beta$$

$$l_{sh} = \frac{m(1 - \cos \omega t)}{\cos \beta} \quad (2)$$

(2) ifoda shtok uzunligi l_{sh} ni tirsak uzunligi m , gidrotsilindrni og'ish burchagi β va balkalarni aylantirish burchagi ωt ga bog'liqligini ifodalaydi. Ifodaning tahlili balkalarni aylantirish burchagi $\omega t = 0^\circ$ bo'lganda $\beta = 0^\circ$ ga teng bo'lishga olib keladi. Bu holatda $\cos 0^\circ = 1$ bo'lib, kasr surati nolga aylanadi. Shunda shtok silindr ichiga kirgan va uning uzunligi nolga teng bo'ladi.

$\omega t = 90^\circ$ ga aylantirilsa, kasr su'rati m ga, ya'ni tirsak uzunligiga teng va (3) ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi;

$$l_{sh} = \frac{m}{\cos \beta} \quad (3)$$

(3) ifoda tahlili, $\beta = 0^\circ$ bo'lsa, shtok va tirsak uzunligi o'zaro teng bo'ladi va shtok silindr ichiga tirsak uzunligicha masofada kiradi. Tahlilning muhim joyi shundaki, tirsak uzunligi shtok uzunligidan katta bo'lsa, har safar sterjen 7 gidrotsilindrni vertikal holatdan o'ng yoki chap tomonga og'ishiga majbur qilib, ishchi detallardan birini sinishiga olib keladi. Bu esa ariq ochgichlarni ishchi va transport holatlarga o'tish jarayonlarini buzilishiga olib keladi va kutilgan natija ta'minlanmaydi.

Yuqorida keltirilgan hisob natijalari $m < l_{sh}$ shart albatta bajarilishi lozimligini ko'rsatadi.

Demak, tanlanadigan gidrotsilindr texnik xarakteristikasi bilan tanishib, uning shtogi uzunligini bilib, undan keyin tirsak uzunligini aniqlash maqsadga muvofiq ekan.

Hisoblar asosida tanlangan porshenli gidrotsilindrning texnik tavsifi quyidagicha: silindr diametri 40 mm, shtogining diametri esa 25 mm, porshen yo'li 160-320 mm, kuchlanish 12, kH.

(3) ifoda va porshenli gidrotsilindrning texnik tavsifi asosida tirsak uzunligi $m = 120$ mm tanlandi.

Xulosa: Nishablikda joylashgan bog'larga qator orasiga ariqlarda bir tomonda tuproq uyumi hosil qilinganda tuproqda yuzaga keladigan suv eroziyasini oldini olishi mumkin. Ariq ochib, undan chiqarilgan tuproq hisobiga tuproq uyumi hosil qilishi uchun, dastlab palaxsa dala yuzasiga chiqariladi. Palaxsani nishablikning enish tomoniga ag'darib tuproq uyumi hosil qilinadi. Nishabliklarda barpo etilgan intensiv bog'larda bu kabi usul va agregatlardan foydalanadigan bo'lsak, tuproqda suv eroziyasining oldi olinib, tuproqning unumdorligi saqlanib, daraxtlarning ildiz tizimi tuprog'i yuvilib ketmasligini ta'minlagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murtazaeva Gulnoza. Factors causing water erosion in intensive orchards located on sloping fields. AGRO ILM No. 6 [85], 2022. ISSN 2091-5616. 2022, qxjurnal@mail.ru, pp. 72-74.
2. Mirzayev Bakhodir Suyunovich, Khudayarov Berdirasul Mirzayevich, Murtazayeva Gulnoza Rakhmat kizi. Development of Soil Treatment Technology and Devices Against Water Erosion in Intensive Garden Soils Located on Sloping Fields. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 10, Issue 3, March 2023.
3. Mirzaev Bahadir, Khudayarov Berdirasul, Murtazaeva Gulnoza. Development of a structure of the working part that protects garden soil from water erosion. AGRO ILM, No. 2 [89], qxjurnal@mail.ru, ISSN 2091-5616, 2023, pp. 80-81.

4. Murtazayeva Gulnoza Rakhmatovna. Technological processes of opening a ditch and manufacturing a gardenbed and principles of forming a gardenbed. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy, International scientific-online conference Part 7, March 21st, Collections of scientific works new Delhi 2023.
5. Murtazaeva Gulnoza Rakhmat kizi. The shape of a ditch opening between garden rows in sloped fields. Current issues of modern scientific research, a collection of articles from the III International Scientific and Practical Conference, held on March 10, 2023 in Penza. ISBN 978-5-00173-731-5. pp.52-54.
6. Murtazaeva Gulnoza Rakhmat kizi. An intensive garden on a slope is a construction of a device that creates a sickle by opening a ditch between the rows. The collection of materials of the 49th republican scientific-practical online conference on the topic "Development of the modern education system and creative ideas, proposals and solutions aimed at it" March 1, 2023, pages 85-87.
7. Murtazaeva Gulnoza Rakhmat kizi. The angle of installation of the blade of the ditch opener to the horizontal in relation to the horizontal. The collection of materials of the 49th republican scientific-practical online conference on the topic "Development of the modern education system and creative ideas, proposals and solutions aimed at it" March 1, 2023, pages 85-87.
8. Mirzoolim A. Avliyakov, Nurmamat Q. Rajabov, Mamta Kumari, Normat Kh. Durdiev. CHARACTERIZATION OF SOIL SALINITY AND ITS IMPACT ON WHEAT CROP USING SPACE-BORNE HYPERSPECTRAL DATA. Conference material InterCarto 2020 y. Chapter 3. pp. 271-285.
9. Mirzoolim Avliyakov, Normat Durdiev, Nurmamat Rajabov, Farruhjon Gopporov, Adkham Mamataliev. THE CHANGES OF COTTON SEED-LINT YIELD IN PARTS OF FURROW LENGTH UNDER DIFFERENT IRRIGATION SCHEDULING. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, p 838-843.
10. Tulaganov B, B Mirzaev, F Mamatov, Sh Yuldashev, N Rajabov, R F Khudaykulov. Machines for strengthening the fodder of arid livestock. AEGIS 2021 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012021.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПАРАМЕТРА ПОТОКА ОТКАЗОВ ТРАКТОРОВ И ЭКСКАВАТОРА «DOOSAN 210 W»

З.Т. Максудов, М.С. Кудайбергенов

Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. Определение эксплуатационных показателей надёжности машин с гидравлическим приводом управления в экстремальных условиях является весьма актуальной задачей. В данной научно-исследовательской работе рассматривается определение эксплуатационных показателей надёжности параметра потока отказов деталей и агрегатов машин в условиях экстремального жаркого климата Центрально-азиатского региона. На основе статистических данных, собранных в ходе эксплуатационных наблюдений за одноковшовыми экскаваторами DOOSAN 210 W, разработана методика определения параметра потока отказов. Проведён детальный анализ трёх периодов эксплуатации: приработки, нормальной работы и интенсивного износа. Полученные результаты могут быть использованы для оптимального планирования технического обслуживания и ремонта, а также для прогнозирования потребности в запасных частях.

Ключевые слова: надёжность, отказ, машина, наработка, деталь, климат, гидропривод, манжета, параметр потока отказов, техническое обслуживание, ресурс.

TRAKTOR VA "DOOSAN 210 W" EKSKAATORINING BUZILISHLAR OQIMI PARAMETRINI TADQIQ ETISH

Z.T. Maqsudov, M.S. Kudaybergenov

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, Uzbekistan

Annotatsiya. Ekstremal sharoitlarda gidravlik boshqaruv yuritmalı mashinalarning ekspluatatsion ishonchlilik ko'rsatkichlarini aniqlash juda dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishida Markaziy Osiyo mintaqasining o'ta issiq iqlimi sharoitida mashina detallari va agregatlarining ishdan chiqish oqimi ishonchligining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini aniqlash ko'rib chiqiladi. Bir cho'michli DOOSAN 210 W ekskavatorlarining ekspluatatsion kuzatuvlari davomida to'plangan statistik ma'lumotlar asosida buzilishlar oqimi parametrlarini aniqlash usuli ishlab chiqildi. Foydalanishning uchta davri batafsil tahlil qilingan: moslashish, normal ishlash va intensiv eskirish. Olingan natijalar texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni optimal rejalashtirish, shuningdek, ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ishonchlilik, nosozlik, mashina, ishlash davomiyligi, detal, iqlim, gidroyuritma, manjeta, nosozliklar oqimi parametri, texnik xizmat ko'rsatish, resurs.

RESEARCH ON THE PARAMETER OF THE FAILURE FLOW OF TRACTORS AND THE "DOOSAN 210 W" EXCAVATOR

Z. Maksudov, M. Kudaibergenov

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

